

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
A K A D E M I YA

N. O‘. ALLAYAROV, M. P. APPAKOV

TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH
XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHDA
MA‘MURIY AMALIYOT

O‘quv qo‘llanma

Toshkent–2014

Taqrizchilar:

yuridik fanlar nomzodi, dotsent **I. A. Sottiyev**;

Toshkent shahar IIBB YHXB YPXB Shtab boshlig‘ining o‘rinbosari,
podpolkovnik **S.A.Ravshanov**;

Toshkent shahar IIBB YHXB boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari,
YPXB komandiri polkovnik **J.A.Karimov**

Allayarov N.O‘.

A-45 Transport vositalaridan foydalanish xavfsizligini ta‘minlashda ma‘muriy amaliyot: O‘quv qo‘llanma / N.O‘.Allayarov, M.P.Appakov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – 44 b .

Mazkur qo‘llanmada transport xavfsizligini tashkil etishda ma‘muriy amaliyotning o‘rni, yo‘l harakati qoidalarini yoki transportdan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun qo‘llaniladigan ma‘muriy jazo choralari va ularning samaradorligi, yo‘l harakati qoidalarini buzgan harbiy xizmatchilar va ichki ishlar idoralari xodimlari ma‘muriy javobgarligining o‘ziga xos xususiyatlari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning yo‘l harakati qoidalarini buzganligiga qo‘llaniladigan ma‘muriy choralar, yo‘l harakati qoidalarining buzilishi to‘g‘risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish va ularning yo‘l-transport hodisalarining oldini olishdagi ahamiyati va boshqa jihatlar yoritilgan.

IIV Akademiyasining tinglovchi va kursantlari, professor-o‘qituvchilar, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar va shu soha bilan qiziquvchi keng ommaga mo‘ljallangan.

BBK 39.3308ya73

SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar hayotga izchil joriy etila boshlandi. Respublikaning bozor iqtisodiyotiga o‘tib borishi, avtomobil sanoatining vujudga kelishi, xorijiy mamlakatlar bilan teng huquqli iqtisodiy aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi, fuqarolarning moddiy farovonligi ortib borishi tabiiy ravishda avtomobil yo‘llarida va shahar ko‘chalarida harakat miqdorining ortib borishiga olib keldi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov ta’kidlaganidek,¹ «2013-yilda yo‘l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari yuqori sur’atlar bilan olib borildi». O‘zbekiston milliy avtomagistrali tarkibiga kiradigan avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari izchil davom ettirildi. Masalan, umumiy foydalanishdagi 530 kilometrlik avtomobil yo‘li qurilib, rekonstruksiya qilindi. To‘rt qatorli G‘uzor-Buxoro-Nukus-Beynov avtomobil yo‘lining 141 kilometrlik tarmog‘ini sement-beton bilan qoplash, to‘rt qatorli Toshkent-O‘sh avtomobil yo‘lining Qamchiq dovoni orqali o‘tadigan 18 kilometrlik qismida asfalt-beton yotqizish ishlari amalga oshirildi, ana shu yo‘lning Qo‘qon shahrini aylanib o‘tadigan 15 kilometrlik tarmog‘i, shuningdek, Toshkent aylanma yo‘lining yangi yo‘nalishi barpo etildi hamda Buxoro shahridagi halqa yo‘lda yo‘l o‘tkazgich qurilishi yakuniga yetkazildi.

O‘zbekiston Respublikasining «Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida»gi 2013-yil 10-apreldagi qonuni² va O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 2-oktabrdagi «Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida»gi qonuni, shuningdek ushbu qonunlar asosida tegishli davlat organlarining normativ-huquqiy hujjatlari bu borada amalga oshirilgan ishlarning yaqqol isbotidir.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг мамлакатимизнинг 2013 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2014 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси.

² Ўзбекистон Республикасининг «Йўл ҳаракати хавфсизлиги тўғрисида»ги қонуни // Халқ сўзи. – 2013. – 11 апр.

Har bir mamlakatda transport vositalari bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish, yo'l-transport hodisalarini kamaytirish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Jamiyat xavfziligini ta'minlash eng birinchi galda yo'l-transport hodisalarini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish, va eng asosiysi, ma'muriy amaliyotni to'g'ri tashkil qilishni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «...bugungi siyosiy-huquqiy voqelikni hisobga olgan holda, mamlakatimizda huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar targ'ibotini tubdan yaxshilashga yo'naltirilgan maqsadli, keng ko'lamlı chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish zarur. Ushbu dasturning amalga oshirilishi aholining inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishini, fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg'usining yanada ortishini ta'minlaydi»¹. Shu maqsaddan kelib chiqib, transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish holatlarini keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash, ma'muriy amaliyotni kuchaytirish, yo'l-transport hodisalarining sodir etilishini kamaytirish uchun birinchi galda haydovchilar bilan ma'muriy profilaktik choralarni to'g'ri tashkil etish lozim.

Mamlakatimiz oldida hozirgi va istiqboldagi asosiy masalalardan biri sifatida avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligini ta'minlash, yo'l-transport hodisalarining oldini olish, ularda halok bo'luvchilar va tan jarohati oluvchilar sonining kamayishiga erishish, shuningdek, ko'riladigan umumiy ijtimoiy-iqtisodiy zararlarni kamaytirish vazifalari turibdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, oxirgi o'n yil ichida respublikamizda har yili 10000 dan ortiq yo'l-transport hodisalari sodir bo'ladi, ularda o'rtacha 12000 kishi jarohatlanadi va 2000 ming kishi halok bo'lishi qayd etilgan. Yo'l-transport hodisalarining oldini olish uchun ko'rilayotgan qator tadbirlarga qaramasdan, ularning miqdorini kamaytirishga erishib bo'lmayapti. Bu esa, yo'l harakati xavfsizligi muammolariga o'ta jiddiy yondashish zarur ekanligini, turli soha vakillari, qolaversa, keng jamoatchilik oldiga o'z yechimini topish kerak bo'lgan vazifa sifatida qo'yishni talab etmoqda.

Avtotransportdagi huquqbuzarliklarga qarshi kurash yo'l harakati xavfsizligi xizmatining asosiy vazifalaridan biri. Ichki ishlar idoralarining vakolatli xodimlari sodir etilgan huquqbuzarlik uchun qonunda nazarda tutilgan choralarni qo'llashlari natijasida yo'l-transport

¹ *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш Концепцияси. – Т., 2010. – 27-бет.

hodisalarining oldini olishga ham ta'sir etishlari amalda kuzatiladi. Yo'llarda harakatlanish sohasidagi tartibbuzarlikka qarshi kurashning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlash maqsadida bu kabi choralarning qanchalik samarali bo'lishini, ularning yo'l harakati ishtirokchilariga, xususan, avtotransport vositalari haydovchilarining ongiga, xulq-atvoriga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini bilish juda muhim. Yo'llarda harakatlanish sohasidagi ayrim haydovchilarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari xilma-xil namoyon bo'lishiga qaramay, ularning asosiy qismi intizomsizlik natijasida vujudga keladi. Amaldagi qonunchilik yo'llarda harakatlanish bilan bog'liq qoidabuzarliklar uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi. Shu bois, yo'l-transport hodisalarining oldini olish, amaldagi qonunchilikka sharh berish, fuqarolarga javobgarlik muqarrarligini tushuntirish va bu soha bilan bog'liq huquqiy-targ'ibot ishlarini olib borishda ushbu risola katta ahamiyatga ega bo'ladi.

TRANSPORT VOSITALARINING IJTIMOIIY MUNOSOBATLARGA TA'SIRI

Huquqiy demokratik davlatni barpo etish jarayonida uning keng ko'lamda faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan barcha vositalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu vositalar qonun ustivorligi prinsiplariga, fuqarolar va davlatning o'zaro mas'uliyatiga, yuksak darajadagi ijtimoiy himoyaga, shaxsning huquq va manfaatlariga asoslanmog'i kerak. Shu bois, bugungi kunda ichki ishlar idoralari xodimlarining yo'l-transport hodisasi bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish, shuningdek, transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligiga tajovuz qiluvchi jinoyatlarga qarshi kurashish, ularni ochish va tergov qilish bilan bog'liq asosiy faoliyatini tubdan yangilash, uni zamon talablari darajasiga olib chiqish va takomillashtirishni davr talabi deb baholab, uni amalga oshirish choralari ko'rishimiz zarur.

Respublikamiz yo'llarida avtomobillar sonining ko'payib borishi iqtisodiyotimizga, ijtimoiy munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga bir qancha salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Yo'l-transport hodisalari, avtotransport sohasidagi huquqbuzarliklar, transport vositalari ishlab chiqarayotgan gazlardan atmosferaning zaharlanishi, avtotransport bilan bog'liq jinoyatlar, ular tarqatayotgan shovqinlar shular jumlasidandir¹. Shuningdek, transport vositalarining ham ko'payib, ham takomillashib borayotganligi ular bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarning tobora o'sib borayotganligiga ham sabab bo'lyapti. Chunonchi, dunyoning ko'pgina mamlakatlarida yo'llarda avtomobildan shikastlanganlik oqibatida halok bo'lganlar soni yuqumli va parazit kasalliklardan halok bo'lganlar sonidan ortib ketgan. Yevropaning 19 mamlakatida avtomobil jarohatlanishidan vafot etganlar soni barcha jarohatlanish oqibatida halok bo'lganlarga qaraganda 42%ni, AQSHda esa 50%ni tashkil etadi.

Transport vositalari bilan bog'liq qoidabuzarliklarning sodir etilishi natijasida davlat, jamiyat va shaxs manfaatlariga moddiy zarar

¹ *Алимов Г.А.* Транспорт воситаси ҳаракати ва ундан фойдаланиш хавфсизлигига қарши жинойтлар: Ўқув қўлланма. – Т., 2000. – 46-б.; *Холмўминов Ж.Т., Маллаев Н.Р.* Атмосфера ҳавосини ҳуқуқий муҳофаза қилиш: Ўқув қўлланма. – Т., 2004. – 93-б.

yetkazilishi, fuqarolar huquq va erkinliklarining poymol etilishi, ekologik, mulkiy va boshqacha zararlar kelib chiqishi mumkin.

Yo‘llarda avtotransport vositalarining xavf-xatarsiz harakat qilishi va har qanday haydovchiga transport vositasini boshqarishda salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillarni bartaraf etish hozirgi kunda dolzarb muammo bo‘lib kelmoqda.

Shu bois, yo‘l-transporti bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni o‘rganib chiqish, tegishli xulosalarni ishlab chiqish va ular asosida zamon talabiga mos keladigan huquqiy me‘yorlarni hayotga tatbiq etish, bu boradagi faoliyatni takomillashtirish lozimdir. Bunda huquqiy tartibga solish predmeti yo‘l harakatidan boshlab boshqa bir qator avtotransport sohasidagi sodir etiladigan huquqbuzarliklar va ularning oldini olish choralarining umumiy holati, ya’ni ushbu sohadagi huquqbuzarliklar bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar bo‘lib, ular haydovchi va yo‘lovchilarni o‘qitish hamda kasbga tayyorlash jarayonida ham o‘z aksini topadi.

Aytish joizki, ko‘pgina hollarda avtotransport sohasidagi ijtimoiy munosabatlar mamlakatni avtomatizatsiyalashtirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin. Ular o‘ziga xos bo‘lgan muayyan mazmun, huquqiy tartibga solishning subyektlari orasidagi mavjud munosabatlar, yuzaga kelish sharoiti bilan ajralib turadi va huquq normalari bilan tartibga solinadi. Hozirgi kunda ijtimoiy munosabatlarning mazkur majmui yillar davomida shakllanib borib, o‘zaro aloqadorlik va o‘zaro muvofiqlikka egadir.

Huquqiy boshqaruvning alohida sohasi sifatida yo‘l harakati xavfsizligi sohasi, huquqning mustaqil tarkibiy bo‘linmasini ajratish zaruriyati bir turdagi ta’sir choralari yordamida u yoki bu darajada bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy ko‘rsatmalarni, huquqning turli tarmoqlarini jadallashtirish asosida mustaqil soha sifatida ajratishga bo‘lgan shubhalar asossizdir. Bu huquq tizimining yagonaligi, huquq tarmoqlarining o‘zaro aloqadorligidan dalolat berib, huquqning kompleks tarmog‘ini shakllantirish imkoniyatini rad etmaydi.

Yangi ijtimoiy munosabatlarning o‘rnatilishi va rivojlanishi sababli yuzaga keladigan farqlash yoki darajalash jarayoni doimiy ravishda yuz bermasligi mumkin. Mavjud bo‘lib kelayotgan va shakllanayotgan ijtimoiy munosabatlar so‘zsiz huquqiy normalarning integratsiyasini yuzaga keltirishi, huquqning yangi tarmoqlarini yaratishi mumkin.

Bizga ma’lumki, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rnini asta-sekinlik bilan egallamoqda.

Bu esa, o'z navbatida, mamlakatda huquqiy tartibotga yanada jiddiyroq e'tibor berishni talab etadi, chunki har qanday mamlakatning demokratik xususiyatlarini ko'rsatuvchi shartlardan biri – inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga qanday yondashganligi hamda uning amalga oshirishi uchun qanday shart-sharoitlar yaratilganligi bilan belgilanadi.

Huquqiy demokratik davlatni barpo etish jarayonida uning keng ko'lamda faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan barcha vositalarni yaratish alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan shunday vazifa bevosita transport vositalaridan foydalanish va harakat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar bilan kurash va ularning oldini olish muammosiga ham to'la-to'kis taalluqlidir. Jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish ichki ishlar idoralarining xizmat majburiyati sifatida qonun bilan mustahkamlangan.

Albatta, yo'llarda transport harakati xavfsizligi va uzviyligini ta'minlash ichki ishlar idoralari tarkibiga kiruvchi yo'l-patrul xizmati xodimlarining vazifalariga kiradi. Biroq, transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligiga oid qoidabuzarliklarning oldini olish jarayonini huquqiy tartibga solish boshqa turli darajadagi hokimiyat va boshqaruv organlari tomonidan ham amalga oshirilishi lozimdir.

Respublikamiz qonunchiligi tizimida bugungi kunga qadar yo'llarda harakatlanish xavfsizligini ta'minlashga doir, transport va avtomobil yo'llari to'g'risida, shuningdek, transportdagi qoidabuzarliklar va ularni sodir etgan shaxslarga huquqiy ta'sir choralarini bog'lovchi qonunlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilgan. Ushbu qonunlar transport vositalari bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni, jumladan, yo'l harakati qonunlariga amal qilishni, yo'llarda transport vositalarining harakatini tartibga solishga xizmat qiladi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida avtotransport sohasidagi sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan hamda yo'llardan to'g'ri foydalanish bo'yicha turli-tuman yo'riqnomalar va qoidalar tasdiqlanmoqda. Ularda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash muammolari va ularning yechimi borasidagi masalalar bir qancha qo'shimcha normativ hujjatlar, qarorlar hamda ko'rsatmalar bilan hal qilinishi mumkin.

YO‘L-TRANSPORT HODISALARINING OLDINI OLISHDA MA‘MURIY JAVOBGARLIK TO‘G‘RISIDAGI KODEKSNING AHAMIYATI

Jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati davlat ichki siyosatining alohida qismi bo‘lib, u demokratik ijtimoiy tuzumni jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilish, jinoyatlarning oldini olish, jinoyatchilikning ijtimoiy jarayonlarga salbiy ta‘sirini kamaytirish maqsadida ushbu ijtimoiy salbiy hodisaga jinoiy-huquqiy ta‘sir ko‘rsatish g‘oyalarini ishlab chiqish va asosiy qoidalarini shakllantirish, ularning shakl va uslublarini yaratish, jinoyatchilikning oldini olishga oid qonun normalarini takomillashtirishda ifodalanadi. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi harakat xavfsizligi qoidalari buzilganda yoki boshqacha tarzda yo‘l harakati qoidalari buzilganda aybdorlarga nisbatan jazo qo‘llab, kelajakda sodir etilishi mumkin bo‘lgan yo‘l-transport hodisalarining oldini olishga xizmat qiladi. Shunday ekan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bilan bir qatorda Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi ham yo‘l-transport hodisalarining oldini olishda katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o‘zining asarlarida Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga munosabat bildirib, jumladan shunday degan: «Faol rivojlanib borayotgan demokratlashtirish jarayonlarini inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksini har tomonlama qayta ishlash va yangi tahrirda qabul qilish zarur. 1994-yilda qabul qilingan amaldagi mazkur kodeksga o‘tgan davr mobaynida 60 martadan ko‘proq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan. Uning yangi tahriri sud-huquq tizimini liberallashtirish munosabati bilan ma‘muriy qonunchilik va jinoiy-huquqiy siyosatda yuz bergan katta miqyosdagi prinsipial o‘zgarishlarni o‘zida tizimli va keng ko‘lamli tarzda aks ettirishi lozim. Bunda avvalambor jinoyat qonunchiligini tobora liberallashtirish, ya‘ni ayrim qonunbuzarlik holatlarini jinoiy yurisdiksiyadan ma‘muriy yurisdiksiyaga o‘tkazishni ko‘zda tutish zarur. Kodeksning yangi tahrirda qabul qilinishi bugungi kunda o‘nlab normativ-huquqiy hujjatlarda o‘z aksini topgan ma‘muriy javobgarlikka oid qonunchilikning unifikatsiyalashuvini, ya‘ni bixilla-shuvini ta‘minlaydi»¹. Ushbu satrlardan ko‘rinib turibdiki, jinoyatchilik-

¹ *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010. – 26-бет.

ning, shuningdek, yo‘l-transport hodisasi bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish, unga qarshi kurashda ham Ma‘muriy, ham Jinoyat kodekslari katta o‘rin tutadi.

Yo‘l harakati xavfsizligi sohasida yuzaga keladigan munosabatlarni bevosita tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar 26 tani tashkil etadi. Bularga O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi¹, O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 10-apreldagi «Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida»gi qonuni², O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 28-fevraldagi «Toshkent shahri va Toshkent viloyatida yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 294-sonli qarori, shuningdek Vazirlar Mahkamasining 14 ta qarori hamda 9 ta idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar kiradi. Shu bilan birga, yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi munosabatlar 50 dan ortiq qonun hujjatlari bilan ham tartibga solingan. Mazkur aksariyat normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash sohasiga alohida e‘tibor qaratish zaruriyati yuzaga kelgan davrga, ya‘ni 2006-2013-yillarga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida harakatlanish xavfsizligini ta‘minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish va bu borada yagona davlat siyosatini yuritish, yo‘l harakati qoidalarini xalqaro «Yo‘l harakati haqidagi» Konvensiya talablariga muvofiqlashtirish maqsadida hamda «Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6-moddasiga asosan Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 11-dekabrda 472-sonli qarori bilan «Yo‘l harakati qoidalarini» tasdiqlangan.

Yo‘l harakati qoidabuzarliklari to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2011-yil 31-maydagi 68-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan «Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma‘muriy ishlarni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risida»gi Yo‘riqnoma³ga va O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2011-yil 10-avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2011-yil 5-iyul kuni vazirlikning 2011-yil 31-maydagi «Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma‘muriy ishlarni ko‘rib chiqish tartibi

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1995. – №3. – 6-м.

² О‘sha manba. – 1999. – № 9. – 215-м.

³ Ўзбекистон Республикасининг Адлия вазирлигида 2011 йил 5 июлда рўйхатдан ўтказилган.

to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida»gi 68-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar to'g'risida»gi 120-sonli buyrug'iga asosan amalga oshiriladi.

Kelajakda transport vositalari bilan bog'liq holda sodir etilishi mumkin bo'lgan qoidabuzarliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda oldin ma'muriy javobgarlikka tortilganlikni aniqlash boshqa shunga o'xshash jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Jinoyatchilikning oldini olishda ma'muriy jazo choralari keng qo'llash, shaxslarning nojo'ya harakatlarini o'z vaqtida anglab yetishiga hamda kelajakda ushbu harakatlarni to'xtatishga olib kelishini inobatga olish zarur¹.

O'zbekiston Respublikasining jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatida yo'l-transport hodisalariga qarshi kurash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muammolardan sanaladi. Shu sababli transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlariga qarshi kurash siyosati asosida boshqa huquq sohalaridagi siyosatning strategiya va taktikasi shakllantiriladi, jinoiy-huquqiy siyosatning ustuvor ekanligi, uning doirasida har bir davlat uchun nihoyatda muhim bo'lgan jinoiy javobgarlik asoslari va prinsiplarini belgilash, jinoiy qilmishlar doirasi va jazo turlari va boshqa jinoiy-huquqiy xususiyatdagi choralarni belgilash bilan bog'liq muammolari hal qilinadi².

MA'MURIY AMALIYOT XODIMLARINING NAZORAT QILISH JARAYONI VA VAZIFALARI

Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va shu asosida jamiyat xavfsizligi hamda jamoat tartibini tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Buning uchun esa, birinchi navbatda, huquq-tartibotni ta'minlash hamda huquq buzilishi bilan bog'liq holatlarning oldini olish katta o'rin tutadi. Bunday qoidabuzarliklarga yo'l qo'ymaslikning eng katta sharti huquq-tartibotning yuqori darajada ta'minlanishidir.

Hozirgi kunda huquqbuzarlikning barcha turlarini oldini olish maqsadida mavjud ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtirish hamda

¹ Шакуров Р.Р. Жиноят ҳукуқида рағбатлантирувчи нормаларнинг тузилиши ва қўлланиши: Ўқув қўлланма. – Т., 2007. – 42-б.

² Абдурасулова Қ. Давлатнинг жиноятчиликка қарши кураш сиёсати ҳақида айрим мулоҳазалар / Жиноят қонунчилигини такомиллаштириш муаммолари: Илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т., 2010. – 43-б.

ularning sabab va sharoitlarini tugatishda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yoʻnalishlarda zarur choralar koʻrishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Koʻrinib turibdiki, huquqbuzarliklarning oldini olish davlat va jamiyat hayotidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgi bozor munosabatlariga oʻtish bilan bogʻliq holda roʻy berayotgan ijtimoiy oʻzgarishlar taʼsirida sodir boʻlayotgan barcha huquqbuzarlikning oldini olishning izchil usul hamda vositalarini yaratish muhim vazifa ekanligini esda tutish lozim.

Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish esa ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish bilan uzviy bogʻliqligini eʼtibordan chetda qoldirib boʻlmaydi. Yaʼni jamiyatda shaxs bilan davlat organlari (mansabdor shaxslari) oʻrtasida yuzaga keluvchi barcha qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, oʻz mohiyatiga koʻra, huquqbuzarliklarning oldini olishdagi eng muhim tadbirdir. Shuning uchun ham har bir davlat yoki jamiyatda, birinchi galda, huquqbuzarlikni keltirib chiqaruvchi barcha salbiy harakatlarga qarshi kurash olib borishga masʼul boʻlgan davlat organlarining faoliyat yoʻnalishlarini toʻgʻri belgilash katta ahamiyatga ega.

Maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi ishlar qonun doirasida hal etilayotganligini, huquqbuzarlik yuzasidan ish toʻgʻri yuritilayotganligini nazorat qilish Oʻzbekiston Respublikasi IIV YHXBB rahbariyati va Bosh boshqarma yoʻl-patrul xizmati faoliyatini tashkil etish, muvofiq-lashtirish va maʼmuriy amaliyot boʻlimi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB va viloyatlar IIB YHXB rahbariyati hamda mazkur boshqarmalar maʼmuriy amaliyot boʻlim (boʻlinma, guruh)lari, shahar-tuman ichki ishlar organlarining hamda mazkur organlar YHXB (YHXG) rahbariyati tomonidan amalga oshiriladi.

Huquqbuzarliklarning oldini olishda, ayniqsa, tahlil etish bosqichida muntazam ravishda olib boriladigan nazorat katta ahamiyatga ega. Bunday nazorat jarayoni toʻliq yoki alohida bosqichlarni oʻz ichiga oladi. Tekshiruv jarayonida transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish bilan bogʻliq hujjatlarni toʻldirishga, bir axborot mashinasida mavjud boʻlgan axborotni boshqa bir mashinaga oʻtkazishga ham alohida eʼtibor qaratiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi IIV tizimida transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish bilan bogʻliq qoidabuzarliklarga qarshi kurash faoliyatini nazorat qiluvchi tizim

yaratilgan. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB va viloyatlar IIBlari rahbariyati tomonidan bir yil davomida kamida bir marta joylardagi tuman (shahar) ichki ishlar organlari, YHX bo‘lim (bo‘linma, guruh)larining huquqiy faoliyati yuzasidan tekshiruv o‘tkazilishi va amaliy yordam ko‘rsatilishi tashkillashtiriladi.

Nazorat qilish davomida quyidagi masalalar o‘rganiladi:

- ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunlarni va ularni qo‘llash tartibi haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining me‘yoriy hujjatlarini DYHXX xodimlari qay darajada bilishlari;

- ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar yuzasidan qabul qilingan qarorlar qonuniy va asosli ekanligi, shu jumladan qo‘llanilgan ma‘muriy ta‘sir ko‘rsatish chorasi qonunda belgilangan jazoga muvofiqligi;

- huquqbuzarliklarning hisob-kitobi va tahlili ma‘muriy amaliyotning og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarini keltirib chiqaruvchi qo‘pol huquqbuzarliklarni aniqlashga va ularning oldini olishga qaratilganligi;

- ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi hujjatlarning ro‘yxatga olinishi va harakati qat‘iy hisobdagi blanka (bayonnoma, jarima kvitansiyasi)larning hisobga olinishi va saqlanishi;

- hisobot kitoblari va boshqa hujjatlarning Respublika IIVning 2011-yil 31-maydagi 68-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan «Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma‘muriy ishlarni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma» hamda IIVning 2011-yil 10-avgustdagi 120-sonli buyrug‘i talablariga muvofiqligi;

- bayonnomalardan va boshqa ma‘muriy hujjatlarning qonuniy rasmiylashtirilishi;

- huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish tartibi va muddatiga rioya etilishi;

- jarima tarzidagi ma‘muriy jazoning ijrosi;

- ma‘muriy amaliyot bo‘limi (bo‘linma, guruhi) faoliyatini shahar-tuman ichki ishlar organlari va IIV, IIBB, IIB va YHXB rahbarlari tomonidan nazorat qilinishi, aniqlangan kamchiliklar va yo‘l qo‘yilgan qonunbuzarliklarga e‘tibor berilishi, ularning kelib chiqish sabablarining o‘rganilishi va bartaraf etish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlari;

- ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritishga oid amaldagi qonun hujjatlari va vazirlik normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan boshqa masalalar ham o‘rganilishi mumkin.

Nazorat qilish davomida ma'muriy jazo qo'llash to'g'risida noqonuniy qarorlar chiqarilganligi aniqlansa, ular bekor qilinadi va fuqarolarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini qayta tiklash choralari ko'riladi.

Nazorat qilish natijalari yuzasidan ma'lumotnoma tayyorlanib, tekshiruvni tayinlagan rahbariyatga axborot beriladi. Rahbar tekshiruv hujjatlari bilan tanishib chiqqach, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga, ma'muriy amaliyot faoliyatini yaxshilashga va qonunchilikni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'radi.

Ma'muriy javobgarlikka olib keluvchi yo'l-transport hodisasi hamda haydovchi tomonidan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish sodir etilganda qoidabuzarlikka oid ishlarni rasmiylashtirish va ma'muriy choralarni qo'llash vakolatlari taqsimlangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 125-moddasida, 125¹-moddaning birinchi qismida, 126-moddada, 127-moddaning birinchi qismida, 128-moddaning birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 128¹-moddaning birinchi qismida, 128²-moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida, 128³-moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida, 128⁴-moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida, 128⁵-moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida, 128⁶-moddada, 129-moddaning birinchi qismida, 130-moddaning birinchi qismida, 135, 135¹-moddalarda, 136-moddaning uchinchi qismida, 138, 139, 140, 141, 147-moddalarda nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun – yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi (Bosh boshqarmasi) boshlig'i, uning o'rinbosari, yo'l-patrul xizmatini tashkil etish va muvofiqlashtirish hamda ma'muriy amaliyot bo'limi boshlig'i, uning o'rinbosari, alohida muhim ishlar bo'yicha inspektor (ma'muriy amaliyot bo'yicha inspektor), ma'muriy amaliyot bo'linmasi (bo'limi) boshlig'i, uning o'rinbosari, ma'muriy huquqbuzarliklarga doir materiallarni ko'rib chiqish bo'yicha katta inspektor (inspektor), avtomototransport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish normalariga va qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat bo'limi (bo'linmasi) boshlig'i, avtomototransport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish normalariga va qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat guruhining katta inspektori, avtomototransport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish normalariga va qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat guruhining ma'muriy amaliyot bo'yicha inspektori, ular yo'qligida esa ichki ishlar bo'limi boshlig'i yoki uning o'rinbosari tegishli qaror qabul qilish vakolatiga ega.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 125-moddasida, 125¹-moddaning birinchi qismida, 126-moddada, 127-moddaning birinchi qismida, 128-moddaning birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 128¹-moddaning birinchi qismida, 128²-moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida, 128³-moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida, 128⁴-moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida, 128⁵-moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida, 128⁶-moddada, 129-moddaning birinchi qismida, 130-moddaning birinchi qismida, 135-moddaning birinchi qismida, 135¹-moddada, 138-moddaning birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 147-moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun – yo'l-patrul xizmati brigadasi (batalyoni, divizioni, otradi, mobil guruhi) komandiri yoki uning o'rinbosari tegishli qaror qabul qilish vakolatiga ega.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 125-moddasi birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 126-moddaning birinchi qismida, 127-moddaning birinchi qismida, 128-moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida, 128²-moddaning birinchi qismida, 128³-moddaning birinchi qismida, 135-moddaning birinchi qismida, 135¹-moddaning birinchi qismida, 138-moddaning birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun – yo'l-patrul xizmati katta inspektori (inspektori) va yo'l harakati qoidalariga hamda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga oid boshqa normativ hujjatlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi boshqa xodimlar tegishli qaror qabul qilish va chora ko'rish vakolatiga ega.

Yo'l harakati qoidalari va transportdagi xavfsizlikni tashkil etishda qo'llaniladigan ma'muriy choralari deb asosan huquqbuzarlikning hisob-kitobi va tahlili ma'muriy amaliyotning og'ir oqibatli yo'l-transport hodisalarini keltirib chiqaruvchi qo'pol huquqbuzarliklarni aniqlashga va ularning oldini olishga qaratilgan tadbirlarga aytiladi.

Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati (DYHXX) hududdagi huquqni qo'llashga doir faoliyatni umumlashtiradi va tahlil qiladi. Tahlil asosida har yili kamida ikki marta huquqbuzarlikning ahvoli va dinamikasi, shuningdek huquqbuzarliklarga nisbatan choralar qo'llash amaliyoti to'g'risida ma'lumotnoma tayyorlaydi va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqadi. Bunda ma'muriy amaliyot xodimlari huquqni qo'llash faoliyatiga doir masalalar yuzasidan tashkiliy-uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi. DYHXXning huquqni qo'llash faoliyatini tartibga solib turuvchi me'yoriy va boshqa hujjatlarni o'zlashtirib borish borasida shaxsiy tarkib o'rtasida ishni tashkillashtiradi.

Huquqbuzarlikning sodir etilishiga olib kelayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida tegishli organlar, muassasalar hamda tashkilotlarga taqdimnomalar kiritadi.

Huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarga rasmiylashtirilgan ma'muriy hujjatlar joylardagi DYHXX vakolatli mansabdor shaxslari tomonidan qonun doirasida ko'rib chiqilayotganligini va huquqbuzarlik yuzasidan ish yuritishning to'g'ri olib borilayotganligini doimiy ravishda nazorat qilib boradi.

Ma'muriy huquqbuzarliklarni ko'rib chiqish va ular yuzasidan ishni yuritish bo'yicha YPX xodimlari faoliyatini o'rganib chiqib, ularda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritadi.

Qonunlar buzilishining oldini olish yuzasidan ichki ishlar organlarining boshqa xizmatlari, jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari va mahalla faollari bilan hamkorlikda ish olib boradi.

Yo'l harakati qoidalari qo'pol ravishda buzilishining oldini olish bo'yicha ishlarni kuchaytirish maqsadida sog'liqni saqlash, adliya va sud idoralari bilan doimiy hamkorlikda ish olib boradi.

Har oyda tuman (shahar) hududida sodir etilgan huquqbuzarliklar tahlili asosida yo'l-transport hodisalarining kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlari o'rganib chiqilib, DYHXXning joylardagi bo'lim (bo'linma)lari va safdagi bo'linmalariga ishni qanday yo'nalishda kuchaytirish kerakligi yuzasidan tegishli takliflar kiritadi.

Har oylik va choraklik ish yakuni bo'yicha ma'muriy amaliyot sohasiga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni jamlab, IIV, IIBB, IIB va YHXBlari orqali O'zbekiston Respublikasi IIV YHXBBga taqdim etadi. Fuqarolarning ma'muriy amaliyot sohasiga taalluqli bo'lgan shikoyat va arizalarini ko'rib chiqadi. Ma'muriy bayonnomalar va jarima kvitansiyalari hisob-kitobining olib borilishi va berilishini, shuningdek ro'yxatga olish kitoblarining yuritilishini nazorat qiladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni bir yil davomida takroriy sodir etgan shaxslarning huquqbuzarligi haqidagi ma'lumotlar to'la-to'kis va to'g'ri alfavitli varaqaga yozilishi yoki kompyuterga kiritilishini nazorat qiladi.

Yo'l harakati qoidalari va transportdagi xavfsizlikni tashkil etishda joylardagi tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmasi (bo'lim, bo'linma) YHXB (YHXG)ning ma'muriy amaliyot bo'yicha xodimlari quyidagi vazifalarni bajarish bilan o'zlarining salmoqli hissalarini ko'shadilar:

– YPX xodimlari tomonidan huquqbuzarga nisbatan qo'llanilayotgan choralar to'g'ri va asosli ekanligini muntazam nazorat qiladi, bunda

haydovchilik guvohnomasining asosli ravishda olib qo'yilishini, shuningdek ma'muriy bayonnomalar va boshqa protsessual hujjatlarning tuzilishi qonunga muvofiqligiga alohida e'tibor beradi;

– huquqbuzarlik sodir etilganligi haqidagi ma'lumotlarga oid hisobotlarni olib boradi. Vakolati doirasida ko'rib chiquvchi organlar (mansabdor shaxslar)ga ma'muriy hujjatlarni qonunda ko'rsatilgan muddatda yuboradi;

– ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi hujjatlarning harakatini tashkil qiladi, jarima belgilash to'g'risidagi qarorlarning o'z vaqtida va to'g'ri ijro etilishi yuzasidan chora-tadbirlar ko'radi;

– huquqbuzarlarga nisbatan ta'sir etish choralarini qo'llash, shuningdek ma'muriy hujjatlarni sifatli tuzish masalalari yuzasidan safdagi bo'linmalar xodimlariga amaliy-uslubiy yordam ko'rsatadi;

– huquqbuzar shaxslarga nisbatan rasmiylashtirilgan ma'muriy hujjatlarni o'z vakolati doirasida ko'rib chiqib, qarorlar qabul qiladi;

– huquqbuzarlik holatini tasdiqlovchi asosli dalillar mavjud bo'lmasa, ma'muriy ishlar bo'yicha qo'shimcha tekshiruv o'tkazadi yoki ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilgan joyga qo'shimcha tekshiruv o'tkazishga yuboradi;

– huquqbuzar shaxslarga nisbatan ta'sir etish choralarini qo'llash yuzasidan bo'linma faoliyatini har oyda umumlashtiradi va tahlil etadi, tahlil natijalariga ko'ra xizmat ko'rsatayotgan hududdagi yo'l-transport hodisalarini hisobga olgan holda harakatni nazorat qilishni takomillashtirish va ta'sir etish choralarini qo'llashning samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar kiritadi;

– tibbiy muassasalarda mastlik holatini annqlash uchun tibbiy ko'rikdan o'tkazilgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni har oyda kamida bir marta mazkur hududning o'zida aniqlangan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi bayonnomalar kitobi bilan solishtirib boradi;

– harakatlanish ishtirokchilarining intizomi to'g'risida tegishli organlarga axborot, avtoxo'jaliklarga va boshqa tashkilotlarga taqdimnoma tayyorlashda ishtirok etadi. Huquqbuzarlik sodir etilishiga olib keluvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida takliflar kiritadi;

– shaxsiy tarkibning kasb malakasini oshirish maqsadida huquqbuzarlarga nisbatan ta'sir choralarini qo'llash, hujjatlarni rasmiylashtirish masalalari yuzasidan xizmat va jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarida qatnashadi, xizmatga kirishayotgan xodimlarga yo'l-yo'riq berishda ishtirok etadi;

– ma'muriy ta'sir choralari qo'llash chog'ida fuqarolardan tushgan shikoyat va arizalarni ko'rib chiqadi, ular yuzasidan ma'lumotnoma va xulosalar tayyorlaydi.

HARBIY TRANSPORT VOSITALARINI BOSHQARISHDAGI HODISALARDA MA'MURIY JAVOBGARLIK

Respublikamizda keng tarmoqli transport tizimi barpo etilgan bo'lib, u mamlakat ichkarisida va tashqarisida yuk hamda yo'lovchilar tashishni yaqin va olis xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni ta'minlaydi, shuningdek, harbiy maqsadlardagi davlatning funksiyalarini bajarishda keng foydalaniladi.

Shu sababli transport vositalarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) umumiy fuqarolik transport vositalari;
- 2) harbiy transport vositalari.

Ushbu turdagi transport vositalarini boshqaruvchi shaxs tomonidan boshqa shaxslarning sog'lig'i va hayotiga xavf soluvchi va zarar yetkazilgan qoidabuzarlik sodir etilganda huquqiy baholash ham turlicha bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 16-moddasiga muvofiq, «harbiy xizmatchilar va yig'inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, shuningdek ichki ishlar organlarining oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslar ma'muriy huquqbuzarlik uchun intizom ustavlariga muvofiq javobgar bo'ladilar. Mazkur shaxslar yo'l harakati qoidalarini, ov qilish, baliq tutish va baliq zaxiralarini saqlash qoidalarini, bojxona qoidalarini buzganliklari uchun umumiy asoslarda ma'muriy javobgar bo'ladilar. Yuqorida ko'rsatilgan shaxslarga nisbatan ma'muriy qamoqqa olish choralari qo'llanilishi mumkin emas. Muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchilariga jarima solinishi mumkin emas».

Mazkur moddada harbiy xizmatchilar va boshqa ayrim toifadagi shaxslarning ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganliklari uchun javobgarlik xususiyatlari ularning umumiy huquqiy maqomini hisobga olgan holda aks ettirilgan.

Bu, avvalo, harbiy xizmatchilarga, O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari saflarida, IIV ichki qo'shinlarida va MXX (Milliy xavfsizlik xizmati) qo'shinlarida haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotgan shaxslarga taalluqlidir (zaxiradagi shaxslar harbiy xizmatchilar emas,

balki harbiy xizmatni bajarishga majbur kishilar hisoblanadi). MXX tizimi organlarining oddiy askarlari va boshliqlari tarkibidagi shaxslar ham harbiy xizmatchilarga tenglashtirilgan. Ichki ishlar organlari, shu jumladan, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslar ham ma'muriy huquqbuzarliklar uchun ularga teng darajada javobgar bo'ladilar.

Harbiy xizmatchilar va yig'inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar (ular mazkur vaqtda o'zlarining huquqiy mavqeiga ko'ra ma'lum darajada harbiy xizmatchilarga tenglashtirilgan bo'ladi) harbiy intizomni va jamoat tartibini buzganliklari uchun qo'mondonlar (boshliqlar) oldida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom nizomi bo'yicha javobgar bo'ladilar. Harbiy intizomni va jamoat tartibini bunday buzishlarga faqat harbiy tartibdagi huquqbuzarlik emas, shu bilan birga, har qanday umummajburiy qoidalar (shu jumladan, qism joylashgan hududdan bo'shatilgan vaqtda, ta'til vaqtida va hokazo)ni buzishlar ham kiradi.

Tegishli mansabdor shaxslar harbiy xizmatchilarning ma'muriy huquqbuzarlik sodir qilganini aniqlaganda, odatda, huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomalar va boshqa materiallarni aybdorlarning Qurolli Kuchlar Intizom nizomi bo'yicha javobgarligi masalasini hal qilish uchun boshliqlarga (qo'mondonlarga) beradilar. Bunday tartib shularni hisobga olib joriy etilganki, birinchidan, harbiy xizmatchilar huquq-tartibotga qat'iy rioya qilish namunasini ko'rsatishlari, ikkinchidan, ularning qo'mondonlari (boshliqlari) o'z qo'l ostidagilarning o'zlarini qanday tutishlari uchun umumiy javobgardirlar. Faqat ma'muriy huquqbuzarliklarning ayrim turlariga (yo'l harakati qoidalarini, ov qilish, baliq tutish va baliq zaxiralarini saqlash, bojxona qoidalarini buzganliklari uchun) qonun chiqaruvchi mustasno tariqasida ularni umumiy asoslarda javobgar bo'lishini belgilagan.

Demak, ichki ishlar idoralari xodimlari va harbiy xizmatchilar transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun umumiy asoslarda ma'muriy javobgarlikka tortiladilar. Shu bilan birga, muddatli harbiy xizmatchilar jarima jazosiga tortilmasligi qonunchilikda belgilab qo'yilgan.

Bulardan tashqari, harbiy xizmatchilarning ma'muriy qoidabuzarliklarga oid ishlari faqat harbiy organlarda ko'rib chiqilishi qonunda belgilangan. Jumladan, quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi organlari nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo qo'llashga haqlidirlar:

– Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 235, 236-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun – tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limlari boshliqlari va tuman (shahar) muqobil xizmat bo'limlari boshliqlari;

– Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 125-moddasi, 125¹-moddaning birinchi qismi, 126-modda, 127-moddaning birinchi qismi, 128-moddaning birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlari, 128¹-moddaning birinchi qismi, 128²-moddaning birinchi va ikkinchi qismlari, 128³-moddaning birinchi va ikkinchi qismlari, 128⁴-moddaning birinchi va ikkinchi qismlari, 128⁵-moddaning birinchi va ikkinchi qismlari, 128⁶-modda, 129-moddaning birinchi qismi, 130-moddaning birinchi qismida va 135, 135¹, 138, 139, 140, 141-moddalarda nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun – harbiy avtomobil inspeksiyasining boshlig'i, katta inspektori ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo qo'llashga haqlidirlar.

Transport vositalarining haydovchilari – harbiy xizmatchilar va yig'inlarga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar sodir etgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi bayonnomalarni O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda belgilangan tartibda harbiy avtomobil inspeksiyasiga yuboradi.

Prokuratura organlari xodimlarining ma'muriy huquqbuzarlik va intizomiy nojo'ya xatti-harakat uchun javobgarligi masalasi yuqori turuvchi prokuror tomonidan hal etiladi¹.

Sudya ma'muriy qoidabuzarlik sodir etganda sudyalarning tegishli malaka hay'atining roziligi bilan ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin. Agar sudyalarning tegishli malaka hay'ati rozilik bermasa ma'muriy javobgarlikka tortilmaydi².

Shu sababli prokuratura xodimlari hamda sudyalar tomonidan ma'muriy qoidabuzarlik sodir etilgan taqdirda ularga nisbatan rasmiylashtirilgan ma'muriy hujjatlar chora ko'rish uchun prokuraturaning yuqori turuvchi organlariga, sudyalarning ma'muriy qoidabuzarlikka oid materiallari sudyalarning malaka hay'atiga yuboriladi³.

1 Ўзбекистон Республикасининг «Прокуратура тўғрисида»ги қонунининг 49-моддаси.

2 Ўзбекистон Республикасининг «Судлар тўғрисида»ги қонунининг 70-моддаси.

3 Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг «Йўл ҳаракати қоидаларининг бузилишига доир маъмурий ишларни кўриб чиқиш тартиби тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш ҳақида»ги 2011 йил 31 май 68-сонли буйруғининг 56-банди.

Harbiy xizmatchi bo'lmagan shaxs tomonidan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatini (Jinoyat kodeksi 266-moddasi) harbiy xizmat bilan aloqador transport vositalarida yo'llarda harakatlanish qoidalarini buzish jinoyatidan (Jinoyat kodeksi 298-moddasi) farqlamoq lozim.

Jumladan, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish qoidasiga muvofiq harbiy xizmatchilar tomonidan xizmat bilan bog'liq jinoiy qilmish sodir etilsa, maxsus subyekt sifatida huquqiy baholanadi. Ushbu qoidalar harbiy transport vositalari bilan bog'liq jinoiy qilmishni sodir etish holatlariga ham taalluqli, ammo kvalifikatsiya qilishda jinoyatning maxsus subyekt bilan bir qatorda predmetiga, ya'ni harbiy texnikaga alohida huquqiy baho beriladi. Shu sababli Jinoyat kodeksining 298-moddasidagi jinoyat predmeti bo'lib harbiy transport vositalari yoki maxsus o'ziyurar jangovar mashinalar hisoblanadi.

Agar harbiy xizmatchi harbiy transport vositalari yoki maxsus o'ziyurar jangovar mashinalarni boshqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzsa, qilmish JKning 298-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim¹.

Ushbu modda bilan kvalifikatsiya qilish uchun qonun ikki holatning mavjud bo'lishini talab qilmoqda. Bular quyidagilar:

- 1) harbiy xizmatchi;
- 2) harbiy maqsadlarda foydalanadigan maxsus transport vositalari.

Harbiy qismlarda, shuningdek, harbiy xizmatchilarda xo'jalik ishlarida foydalanishiga mo'ljallangan transport vositalari mavjud. Bular harbiy qismlardagi yengil mashinalar, avtobuslar, yuk tashishga mo'ljallangan transport vositalari, shuningdek, harbiy xizmatchilarning shaxsiy transport vositalaridir. Agar harbiy xizmatchi ushbu harbiylashtirilmagan transport vositasida yo'llarda harakatlanish qoidalarini buzishi oqibatida yo'l-transport hodisasini sodir etsa, uning qilmishi Jinoyat kodeksi 266-moddasining tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Huquqiy baholashning bu qoidasi «Transport harakati yoki undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlarga oid ishlar yuzasidan sud amaliyoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Транспорт ҳаракати ёки ундан фойдаланиш хавфсизлигига қарши жиноятларга оид ишлар юзасидан суд амалиёти тўғрисида»ги 2000 йил 22 декабрь 32-сонли қарорининг 8-банди.

22-dekabrda 32-sonli qarorining 8-bandi qoidalariga va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan 2000-yil 23-aprelda 87-son bilan tasdiqlangan «Yo'l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishni tashkil etish haqida»gi yo'riqnomaning 3.23-bandiga asoslanadi.

Harbiy xizmatchi bo'lmagan fuqaro harbiylashtirilgan mashinada yoki maxsus harbiy transport vositasida yo'llarda harakatlanish qoidalarini buzishi oqibatida yo'l-transport hodisasini sodir etsa, uning qilmishi ham umumiy asoslarda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 266-moddasi tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim bo'ladi¹.

Bu holatda fuqaroning harbiylashtirilgan transport vositalarini boshqarishga ruxsati bor yoki yo'qligi JKning 266-moddasi bilan kvalifikatsiya qilishga ta'sir etmaydi. Ammo qilmishida JKning boshqa moddalaridagi jinoyat belgilari mavjud bo'lsa, qo'shimcha kvalifikatsiya qilishga olib keladi. Masalan, harbiy transport vositalari olib qochilgan bo'lsa, JKning 267-moddasi bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilinadi.

Ma'lumki, shaxsning sodir etilayotgan jinoyatga ruhiy munosabati turli intellektual va irodaviy holatlarda, ushbu holatlarning xilma-xil ko'rinishlari va qo'shilishida ifodalanadi². Jinoyat qonunchiligida intellektual va irodaviy jihatlar va ushbu jihatlar qo'shilishining mohiyatigina aks etadi. Aybning aqliy elementini shaxsning o'zi sodir etayotgan qilmishining haqiqiylik xususiyatini, uning ijtimoiy ma'nosi va ahamiyatini anglashi, shuningdek, o'z qilmishining qanday oqibatlarga olib kelishini bila olish qobiliyati tashkil etadi. Aybning irodaviy elementi subyektning faoliyatni, xatti-harakatning muayyan variantini tanlash orqali boshqarishida namoyon bo'ladi³.

Tahlil qilinayotgan jinoyatlarning subyektiv tomoni aybning turli shakllari bilan tavsiflanadi.

Transport vositasi harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar asosan murakkab shaklli ayb ekanligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, aybning murakkab shaklida aybdorning oqibatga nisbatan

¹ O'sha joyda..

² *Мухторов Н. Л.* Жиноят қонунида айбнинг эҳтиётсизлик шакли муаммолари: юрид. фан. номз. ... дис. автореф. – Т., 2009. – 27-б.

³ *Ильхамов А. Н.* Борьба органов внутренних дел с неосторожными преступлениями. – Т., 1990. – С.52; *Тахиров Ф.* Содержание умысла при причинении тяжких телесных повреждений / Проблемы совершенствования мер борьбы с преступностью. – Т., 1986. – С.25.

ruhiy munosabati ehtiyotsizlikning har ikkala turida ham (jinoiy o‘z o‘ziga ishonish va jinoiy beparvolik) o‘z aksini topishi mumkin. Qonuniy deb yanglishgan bo‘lsa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi¹.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 298-moddasidagi jinoyatni kvalifikatsiya qilish jarayonida transport vositalarini boshqarayotgan shaxs harbiy xizmatchi ekanligini va transport vositalari harbiy maqsadlarda foydalanish uchun ishlab chiqarilganligini inobatga olish zarur. Ushbu holatlardan kamida bittasi aniqlanmagan holatda qilmish umumiy asoslarda Jinoyat kodeksining 266-moddasi tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Mazkur jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishga jinoyat sodir etish motivlari va maqsadlari javobgarlikka ta’sir etmaydi, shuning uchun u turlicha bo‘lishi mumkin².

RESPUBLIKAMIZDA XORIJIY FUQAROLAR VA FUQAROLIGI BO‘LMAGAN SHAXSLARNING TRANSPORT VOSITALARINI BOSHQARISHDAGI HODISALARDA MA’MURIY JAVOBGARLIGI

O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2009-yil 15-apreldagi 53-sonli buyrug‘iga asosan «O‘zbekiston Respublikasi hududida xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning transport vositalarida harakatlanish tartibi va ularni nazorat etishni tashkillashtirish bo‘yicha Yo‘riqnom» tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan chet el fuqarolari ma’muriy qoidabuzarlik sodir etgan taqdirda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 17-moddasiga muvofiq umumiy asoslarda ma’muriy javobgarlikka tortiladilar.

Immunitetga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning O‘zbekiston Respublikasi qatnashchi bo‘lgan xalqaro shartnomalar va bitimlarga zid bo‘lmagan qismi qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasiga avtosayyoh sifatida kelgan yoki xalqaro yuk (yo‘lovchi)larni tashiyotgan haydovchi tomonidan transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etish jazosi nazarda tutilgan

¹ *Алимов Г. А.* Транспорт воситаси ҳаракати ва ундан фойдаланиш хавфсизлигига қарши жиноятлар: Ўқув қўлланма. – Т., 2000. – 46-б.

² *Закирова О. Г.* Рашк мотиви билан содир этиладиган жиноятларга қарши кураш муаммолари. – Т., 2004. – 301-б; *Кадыров М. М.* Уголовное право. Особенная часть / Под ред. У.Таджиханова. – Т., 1997. – С. 227.

huquqbuzarlik sodir etilganda, huquqbuzarga rasmiylashtirilgan ma'muriy bayonnoma va uning haydovchilik hujjatlari bir sutka ichida buyurtma xat orqali huquqbuzarlik sodir etilgan hududdagi sudga ma'muriy chora ko'rish uchun taqdim etiladi¹.

Bunda transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi hujjatlar olinganligi to'g'risida avtosayyohning eslatmasiga, xalqaro yuklar (yo'lovchilar)ni tashiyotgan haydovchining bu safarga asos bo'lgan ruxsatnomasining «qo'shimcha ma'lumotlar» deb nomlangan joyiga yozib qo'yiladi.

Transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etish muddati tugagach, qaytarib olinmagan transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi hujjatlar kuzatuv xati bilan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga yuboriladi. Xatda haydovchining fuqaroligi, transport vositasining ro'yxat raqami, yuki tashilayotgan tashkilotning nomi, transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi hujjatlarning olib qo'yish vaqti va sababi ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 21-noyabrdagi 408-sonli va 25-dekabrdagi 457-sonli qarorlarining to'liq va sifatli bajarilishini ta'minlash, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududida transport vositalarida yurishlari, tranzit o'tib ketishlarini tartibga solish, ularning O'zbekiston Respublikasi qonunlariga rioya qilishlari ustidan nazorat kuchaytirildi va maxsus yo'riqnoma ishlab chiqarilgan.

Yo'riqnomada quyidagilar keltirilgan: «UN» «SMD», «D», «T» va «X» indeksli transport vositasi haydovchisi yo'llarda harakatlanish qoidalarini buzgan taqdirda YPX xodimi uni to'xtatib, agar u immunitetga ega bo'lsa, unga nisbatan bayonnoma tuzgandan so'ng haydovchilik hujjatlarini qaytarib beradi. Haydovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lsa, unga nisbatan hujjatlar umumiy tarzda rasmiylashtiriladi.

Mast holatda bo'lgan barcha xorijiy fuqarolar transport vositasini boshqarishdan chetlashtiriladi. Agar haydovchi hech qanday immunitetga ega bo'lmasa, unga nisbatan chora umumiy tarzda qo'llaniladi. Agar haydovchi immunitetga ega bo'lsa, uning roziligi bilan tibbiyot

¹ Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг «Йўл ҳаракати қоидаларининг бузилишига доир маъмурий ишларни кўриб чиқиш тартиби тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш ҳақида»ги 2011 йил 31 май 68-сонли буйруғининг 82-банди.

ko'rigidan o'tish taklif qilinadi. Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgani haqida bayonnoma tuzilib, haydovchilik guvohnomasi qaytarib beriladi. Haydovchi tibbiy ko'rikdan o'tishdan bosh tortgan taqdirda bayonnoma ikki guvoh ishtirokida tuziladi. Bu haqda YHXB yoki IIB navbatchisiga axborot beriladi. U esa, o'z navbatida, MXX idoralarini xabardor etib, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali xorijiy vakolatxona vakilini bayonnoma bilan tanishtirish va transport vositasini olib ketish uchun chaqirtiradi. Vakilni chaqirishning ilojisi bo'lmasa, haydovchiga transport vositasini qoldirib, yashash joyigacha boshqa transportda ketishini taklif qiladi. Agar transport vositasi harakatga xalaqit bersa, uni yaqin joydagi to'lovli saqlash joyiga olib borib qo'yish chorasini ko'radi.

Diplomatik maqomga ega bo'lgan xorijiy fuqarolar boshqaruvidagi transport vositalarida (agar ularga tibbiy yordam ko'rsatish lozim bo'lmasa) yo'l-transport hodisasi sodir etilsa, YPX xodimi haydovchiga hodisa yuzasidan hujjatlarni rasmiylashtirishda qatnashishni tavsiya etadi. Agar haydovchi yoki uning yonida o'tirgan yo'lovchilardan biror kishi hujjatlarni rasmiylashtirishda ishtirok etishni xohlamasa, ular haqidagi zarur ma'lumotlarni kelib, olib ketishga ruxsat etadi va bu haqda navbatchini xabardor etadi, u esa, o'z navbatida, TIV va MXXga xabar qiladi (hodisani rasmiylashtirish jarayonida Tashqi ishlar vazirligining xodimi ishtirok etishi shart).

Voqea joyini ko'zdan kechirish bayonnomasida haydovchining qatnashmaslik sababi ko'rsatilib, uni tuzgan xodim va guvohlarning imzosi bilan tasdiqlanadi.

«M» va «N» indeksli transport vositalari haydovchilari yo'llarda harakatlanish qoidasini buzgan hollarda ularga nisbatan ma'muriy javobgarlik umumiy tarzda qo'llaniladi.

«Diplomatik aloqalar to'g'risida»gi (1961-yil 18-aprel) Vena Konvensiyasining 41-moddasi 1-bandiga, «Konsullik aloqalari to'g'risida»gi (1963-yil 24-aprel) Vena Konvensiyasining 55-moddasi 1-bandiga va O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 17-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari, shuningdek ularga tenglashtirilgan tashkilotlar xodimlariga (va ularning oila a'zolariga) (keyingi o'rinlarda daxlsizlikdan foydalanuvchi shaxslar deb yuritiladi) nisbatan yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik choralarini qo'llash

tartibini belgilaydi¹. O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiya kilingan xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarining, shuningdek ularga tenglashtirilgan tashkilotlarning (keyingi o‘rinlarda – diplomatik vakolatxonalar deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslar bo‘lgan ma‘muriy-texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlari daxlsizlikdan foydalanuvchi shaxslar hisoblanmaydi.

Quyidagilar daxlsizlikdan foydalanuvchi shaxs boshqarayotgan transport vositalarini to‘xtatish uchun asos hisoblanadi:

– haydovchilar yoki yo‘lovchilar tomonidan yo‘l harakati qoidalarining buzilishi;

– transport vositasining harakatlanish xususiyati haydovchining boshqarish qobiliyatiga shubha tug‘dirsa (yo‘nalishning va/yoki tezlikning keskin o‘zgarishi);

– transport vositasining texnik nosozligidan dalolat beruvchi belgilarning mavjudligi;

– transport vositasining davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari ko‘rinishini yashiruvchi biror-bir vositalardan foydalanish mavjudligi (ularning belgilanmagan joyga mustahkamlanishi yoki boshqacha predmetlar bilan yopilishi);

– transport vositasi, haydovchi yoki yo‘lovchilarning YTHni, jinoyat yoki ma‘muriy huquqbuzarlikni sodir etishga aloqadorligi to‘g‘risida dalolat beruvchi ma‘lumotlarning mavjudligi;

– vakolatli davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning harakatni cheklash yoki taqiqlash to‘g‘risidagi qarorlarini bajarish;

– davlat standarti normalariga muvofiq bo‘lmagan ko‘zgusimon yoki tusi o‘zgartirilgan (qoraytirilgan) oynali transport vositalaridan foydalanish (diplomatik vakolatxona boshlig‘ining transport vositasi bundan mustasno).

Ushbu asoslar mavjud bo‘lmaganda transport vositalarini to‘xtatish man etiladi.

YPX xodimlari quyidagi hollarda haydovchiga transport vositasi kabinasi (saloni)dan chiqishni taklif qilishlari mumkin:

– transport vositasining texnik nosozligini yoki yuk tashish qoidalari buzilishlarini bartaraf etish uchun;

¹ Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги ва Олий судининг 2012 йил 13 февралдаги 7, 5 ва 22-сонли қарорлари.

– haydovchining alkogolli ichimlik, giyohvand modda ta'siridan va o'zgacha tarzda mastlik holatida deb hisoblash uchun yetarli asoslar bo'lganda;

– haydovchilar yoki yo'lovchilar ma'muriy huquqbuzarlik va/yoki jinoyatlar sodir etishda gumon qilinganda.

YPX xodimlarining daxlsizlikdan foydalanuvchi shaxslarga nisbatan munosabatlari qonuniylikka qat'iy rioya etish, o'z vazifalarini aniq bajarish, shuningdek huquqbuzarlikning oldini olish va ularga barham berishdagi prinsipiiallik, ushbu shaxslarga e'tibor, xayrixohlilik va hurmat ko'rsatish bilan asoslanishi lozim.

YPX xodimi daxlsizlikdan foydalanuvchi shaxslarga murojaat qilishda qo'lni bosh kiyimga qo'yib o'zini tanishtirishi, o'z lavozimi, maxsus unvoni va familiyasini aytishi, transport vositasini to'xtatish sababini ma'lum qilishi lozim.

YPX xodimlari daxlsizlikdan foydalanuvchi shaxslar bilan so'zlashishda xotirjam va vazmin bo'lishlari lozim, ularning tortishuvga kirishishi, o'zini yo'qotishi, qo'polikka qo'polik bilan javob qaytarishi mumkin emas.

Nizoli vaziyatlar, e'tirozlar paydo bo'lganda yoki daxlsizlikdan foydalanuvchi shaxsning talabiga ko'ra YPX xodimi ko'krak nishonining tartib raqamini aytadi va xizmat guvohnomasini qo'lidan chiqarmay ko'rsatadi. Bu haqda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnomaga yozib qo'yiladi va qo'shimcha materiallar bayonnomaga qo'shib qo'yiladi.

MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLAR TO'G'RISIDA ISH YURITISH ISTISNO QILINADIGAN HOLATLAR

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 271-moddasiga muvofiq, quyidagi holatlar mavjud bo'lsa, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishni boshlash mumkin emas, boshlangan ish esa tugatilishi lozim:

1) ma'muriy huquqbuzarlik hodisasi yoki alomati yo'q bo'lsa. Ma'muriy huquqbuzarlik hodisasi va tarkibining bo'lmasligi ma'muriy qilmish faktini tasdiqlovchi ma'lumotlarning yo'q ekanligini yoki hodisa bo'lganu, ammo uning tahlili ma'muriy qoidabuzarlik tarkibini yuzaga keltiruvchi alomatlari mavjud emasligini bildiradi. Masalan, transport vositasini boshqarayotgan shaxs xavfsizlik kamarini taqmaganlik holatida haydovchining yurak xastaligi bilan kasallanganligi va uni kamarni taqishdan ozod etuvchi tibbiyot komissiyasining xulosasi mavjudligida

yoki ayrim toifadagi transport vositalariga O‘zbekiston Respublikasi IIV YHXBB tomonidan Davlat standarti normalariga muvofiq bo‘lmagan ko‘zgusimon yoki tusi o‘zgartirilgan (qoraytirilgan) oynalardan foydalanishga ruxsatnoma berilgan bo‘lsa va boshqalar;

2) ma‘muriy huquqbuzarlikni sodir etish paytida shaxs o‘n olti yoshga to‘lmagan bo‘lsa. Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 13-moddasiga muvofiq, ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytda o‘n olti yoshga to‘lgan shaxslar ma‘muriy javobgarlikka tortiladilar. Huquqbuzarlik sodir etilgan paytda 16 yoshga to‘lmagan shaxslarning ishi to‘xtatilishi kerak. Keyinchalik shaxs 16 yoshga to‘lganligi ham uni ma‘muriy javobgarlikka tortishga asos bo‘lmaydi. Chunki shaxsning huquqbuzarlik sodir etgan vaqtdagi yoshi inobatga olinadi. Shaxs 16 yoshga to‘lgan, tug‘ilgan kundan keyingi kundan boshlab ma‘muriy javobgarlik yoshiga to‘lgan hisoblanadi;

3) g‘ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlikni sodir etgan shaxs aqli noraso bo‘lsa. Aqli norasolik deganda shaxsning g‘ayrihuquqiy harakatni yoki harakatsizlikni sodir etish vaqtidagi shunday ruhiy holati tushuniladiki, u mazkur shaxsga ayb yuklash imkoniyatini yo‘qqa chiqaradi. Bunda ruhiy faoliyatning buzilishi bilan bog‘liq holat nazarda tutiladi. Gap surunkali ruhiy kasallik, ruhiy faoliyatning vaqtincha buzilganligi, aqli zaiflik yoxud boshqa kasallik holati haqida boradi. Bu aqli norasolikning tibbiy mezonidir. Keltirib o‘tilgan kasalliklarning mavjudligi haqida ruhiy shifokor xulosa beradi. Shuning uchun, basharti ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsda ruhiy kasallik mavjudligi haqida ma‘lumotlar mavjud bo‘lsa, ruhiy ekspertiza tayinlanishi lozim.

Ruhiy faoliyatning surunkali buzilganligi deganda davolab bo‘lmaydigan yoki qiyin davolanadigan ruhiy kasalliklar nazarda tutiladi. Masalan, shizofreniya, epilepsiya va shu kabi kasalliklar uzoq vaqt mobaynida davolanadi.

Ruhiy faoliyatning vaqtincha buzilganligi nisbatan tez o‘tib ketadigan va tuzalish bilan tugallanadigan ruhiy kasallikdir. Bunday vaqtincha buzilishlarga og‘ir ruhiy larzalar natijasida kelib chiqadigan reaktiv holatlar, patologik mastlik va boshqalar kiradi.

Aqli zaiflik, bu so‘zning mazmunidan ko‘rinib turibdiki, ruhiyatning muhim kamchiliklaridan bo‘lib, o‘z xatti-harakatlarining xususiyatiga va ularni sodir etishning ehtimol tutilgan oqibatlariga baho berishga to‘sqinlik qilishidir. Ruhiyatning bunday kamchiligi inson tug‘ilgan paytdan bo‘lishi yoki ilk bolalikda paydo bo‘lishi yoxud avj olib boruvchi qandaydir ruhiy kasallikning natijasi bo‘lishi mumkin. Aqli zaiflik idiotiya – aqliy jihatdan

rivojlanmaganlikning eng chuqur darajasi, imbetsiallik – aqli zaiflikning o‘rtacha darajasi va debillik – aqliy zaiflikning yengil darajasi shaklida ifodalanishi mumkin.

Boshqacha kasallik holati – ruhiy buzilishning og‘ir shakli bilan bog‘liq bo‘lgan turli kasalliklar, psixopatiyaning ayrim shakllari, yuqumli kasalliklar bilan bog‘liq bo‘lgan ruhiy xastaliklardir;

4) shaxs harakatni zaruriy mudofaa holatida yoki oxirgi zarurat holatida qilgan bo‘lsa. Ma‘muriy huquq fuqarolarga qonun doirasida o‘z haq-huquqlarini himoya qilish, kerak bo‘lgan holatlarda esa tajovuzchiga zarar yetkazib himoyalaniş huquqini beradi. Zarar yetkazib himoyalaniş huquqlarini fuqarolarga berish O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq holda amalga oshiriladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida «har kim o‘z sha‘ni va obro‘sga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniş va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega», deb belgilab qo‘yilgan.

Davlat fuqarolarning tajovuzchiga zarar yetkazib himoyalaniş huquqlarini O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi bilan kafolatlaydi va bu huquq zaruriy mudofaa instituti sifatida mustahkamlab qo‘yilgan. Jumladan, «O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida yoki ma‘muriy huquqbuzarlik uchun ma‘muriy javobgarlik belgilovchi boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan, lekin zaruriy mudofaa holatida, ya‘ni shaxsni yoki mudofaalanuvchining yoxud boshqa shaxsning huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini g‘ayrihuquqiy tajovuzlardan shunday tajovuz qilayotgan shaxsga zarar yetkazish yo‘li bilan himoya qilish vaqtida, basharti bunda zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib ketilishiga yo‘l qo‘yilmagan bo‘lsa, sodir etilgan harakatlar ma‘muriy huquqbuzarlik deb hisoblanmaydi» (MJTKning 18-moddasi).

Oxirgi zarurat deganda shaxsga yoki boshqa fuqarolarga yoxud ularning huquqlariga, jamiyat yoki davlat manfaatlariga tahdid soluvchi xavfni qaytarish uchun qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va manfaatlarga zarar yetkazish tushuniladi. Qilmishni oxirgi zarurat deb huquqiy baholash uchun shu xavfni o‘sha holatda boshqa choralar bilan qaytarishning iloji bo‘lmasligi hamda keltirilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo‘lishi talab qilinadi.

Oxirgi zarurat holati qonun bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatga kamroq zarar yetkazib, ikkinchi bir ko‘proq ahamiyatga ega manfaatni zarardan saqlab qolishda ifodalanadi va shu sababli ijtimoiy foydali harakat deb baholanadi. Chunki shaxs kamroq zarar

yetkazish yo‘li bilan ko‘proq miqdordagi aniq zarar kelib chiqishining oldini oladi.

Muhim shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni ta‘minlashga intilib oxirgi zarurat holatida harakat qiluvchi shaxs ijtimoiy foydali maqsadni ko‘zda tutadi yoki ushbu holatda faqat zarar yetkazish yo‘li bilan kelib chiqishi aniq bo‘lgan og‘ir oqibatning oldini oladi.

Oxirgi zarurat holatida shaxs qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarni himoya qilish maqsadida qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa ijtimoiy munosabatlarga qasddan ziyon yetkazadi. Shuni inobatga olib, ma‘muriy huquq xavf va xavfning oldini olishga nisbatan shartlarni MJTK normalariga muvofiq holda ishlab chiqilgan hamda shu shartlarga rioya qilgan holda yetkazilgan zarar oxirgi zarurat holatida yetkazilgan deb topiladi va zarar yetkazgan shaxs ma‘muriy javobgarlikka tortilmaydi. «O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida yoki boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan, huquqlarga hamda qonun bilan himoya etiladigan manfaatlarga zarar yetkazgan, oxirgi zarurat holatida, ya‘ni shaxsga yoki mazkur shaxsning yoxud boshqa shaxsning huquqlariga, jamiyat yoki davlat manfaatlariga tahdid etayotgan xavfni, basharti bu xavfni o‘sha holatda boshqacha choralar bilan bartaraf etib bo‘lmasa hamda yetkazilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo‘lsa, bartaraf etish uchun sodir etilgan harakatlar ma‘muriy huquqbuzarlik deb hisoblanmaydi» (MJTK 19-moddasi);

5) amnistiya akti chiqishi, agar u ma‘muriy jazo chorasini qo‘llanishni bekor qilsa. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 93-modda 1-qismining 23-bandiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 80-modda 10-bandiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 2006-yil 22-dekabr 16-sonli qarorining 1-bandida ta‘kidlanganidek, «amnistiya akti ma‘muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etgan muayyan toifa shaxslarga nisbatan davlat tomonidan ko‘rsatiladigan insonparvarlik ifodasi bo‘lib, bundan ko‘zlangan maqsad mazkur shaxslarga nisbatan ma‘muriy yoki jinoyat-huquqiy ta‘sir choralari qo‘llamagan holda ular-

ning axloqan tuzalishi uchun imkoniyat berish yoxud bunday choralar qo‘llanilgan shaxslar holatini yengillashtirishdir»;

6) ma‘muriy javobgarlikni belgilovchi hujjat bekor qilingan bo‘lsa. Ma‘muriy javobgarlikni belgilagan hujjat bekor qilingan taqdirda ham ish yuritish istalgan bosqichda to‘xtatilishi lozim. Agar yangidan qabul qilingan hujjat javobgarlikni yengillashtirsa, ish yuritish oddiy tartibda davom ettiriladi, ammo jazo keyingi hujjatga muvofiq belgilanadi;

7) ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish paytiga kelib Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 36-moddasida nazarda tutilgan muddatlar o‘tib ketgan bo‘lsa. Ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etilgan vaqtdan boshlab ikki oy ichida tegishli bayonnoma tuzilib, jazo qo‘llash to‘g‘risida qaror chiqarilishi lozim. Agar ushbu muddat o‘tib ketgan bo‘lsa, jazo chorasining qo‘llash to‘g‘risidagi qaror chiqarilmaydi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi MJTKning 330-moddasiga muvofiq, «Basharti ma‘muriy jazo qo‘llanish to‘g‘risidagi qaror chiqarilgan kundan boshlab uch oy davomida ijro etishga qaratilmagan bo‘lsa, u holda bunday qaror ijro etilmaydi».

Biroq xususiyati jihatidan har xil bo‘lgan ma‘muriy huquqbuzarliklar uchun mazkur muddatni hisoblash nuqtasi turlichadir. Ko‘pchilik nojo‘ya xatti-harakatlar uchun ma‘muriy jazo chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi qarorni chiqarish muddatining boshlanishi huquqbuzarlik sodir etilgan kun hisoblanadi. Basharti huquqbuzarlikni sodir etish davom etayotgan bo‘lsa, uning o‘tish muddati boshqacha hisoblanadi. Muayyan muddat davomida uzluksiz ravishda amalga oshirib kelinayotgan huquqbuzarlik davom etayotgan huquqbuzarlik deb e‘tirof qilinadi. Davom etayotgan ma‘muriy huquqbuzarlikka o‘qotar qurolni saqlash, yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzish, ro‘yxatdan o‘tmasdan yashash va shu kabilar misol bo‘lishi mumkin. Bu huquqbuzarliklar muayyan xatti-harakatni uzluksiz amalga oshirish bilan ajralib turadi. Davom etayotgan huquqbuzarliklar bo‘yicha ikki oylik muddat dastlabki huquqbuzarlik boshlangan paytdan emas, balki bu huquqbuzarlik faktining o‘zini aniqlash paytidan boshlanadi.

Jinoyat ishini qo‘zg‘atish rad etilgan yoki bu ish to‘xtatilgan bo‘lsayu, lekin huquqbuzarning harakatlarida ma‘muriy huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo‘lsa, ma‘muriy jazo chorasini qo‘llash mazkur ishni qo‘zg‘atishni rad etish yoxud uni to‘xtatish haqida qaror qabul qilingan kundan boshlab, bir oydan kechiktirmay amalga oshirilishi mumkin;

8) ma‘muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs xususida shu fakt yuzasidan ma‘muriy jazo qo‘llanish to‘g‘risida vakolatli organ

(mansabdor shaxs) qaror chiqargan bo'lsa yoki ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni tugatish to'g'risida chiqarilgan qaror bekor qilinmagan bo'lsa, shuningdek mazkur fakt yuzasidan jinoyat to'g'risidagi ish qo'zg'atilgan bo'lsa. Ma'muriy javobgarlikka jalb etilgan shaxsga nisbatan vakolatli organlarning ma'muriy jazo qo'llash haqidagi qarori yoki ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni to'xtatish haqida bekor qilinmagan qaror bo'yicha fakt yuzasidan ish yuritish mumkin emas, boshlangan ish esa to'xtatiladi.

Ushbu fakt bo'yicha jinoiy ish mavjud bo'lgan taqdirda ham ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishning boshlanishi mumkin emas, boshlangani esa to'xtatilishi lozim.

Jinoiy ish to'xtatilgan, ammo ko'rib chiqish jarayonida ma'muriy huquqbuzarlik haqida guvohlik beruvchi faktlar aniqlangan taqdirda, tergovchi, sud tegishli tashkilotlarni bundan ogoh etadi. Bu ma'muriy ish qo'zg'atish uchun asos hisoblanadi;

9) shaxs ishi yuritila boshlangan paytda vafot etgan bo'lsa. Ish yuritilgan shaxsning unga nisbatan vafot etishi bu ishni to'xtatishga olib keladi, chunki ma'muriy javobgar shaxs bo'lmaydi (masalan, yo'l-transport hodisasini sodir etgan shaxs o'zi tan jarohati olib vafot etishi va boshqalar).

Ushbu ko'rsatilgan holatlardan kamida bittasi mavjud bo'lsa ham ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishga yo'l qo'yilmaydi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 271-moddasida zikr etilgan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda ishni boshlash mumkin emas, boshlangan ish esa to'xtatilishi lozim. Bu asoslar ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi qaror yuzasidan shikoyat va e'tirozlarni ko'rib chiqishda ham qo'llaniladi.

Qonun bilan belgilangan holatlarda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar boshqa asoslar bo'yicha ham to'xtatilishi mumkin. Masalan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 21-moddasiga muvofiq, sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik kam ahamiyatli bo'lgan taqdirda sud huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod etib, uni ogohlantirish bilan kifoyalanishi mumkin. Agar ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiquvchi boshqa organ (mansabdor shaxs) sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlikning kam ahamiyatligi haqida xulosaga kelsa, huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish haqidagi masalani hal etish uchun ushbu Kodeksning 308¹-moddasida belgilangan tartibda ish sudga yuboriladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rishni tugatish bilan qarorni bekor qilish oqibatlari Kodeksning 324-moddasida nazarda tutilgan. Jumladan, Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rishni tugatish bilan qarorni bekor qilish undirib olingan pul summalarini, haqi to'lab olib qo'yilgan va musodara qilingan narsalarni qaytarib berishga, shuningdek ilgari qabul qilingan qaror bilan bog'liq boshqa cheklashlarni bekor qilishga sabab bo'ladi. Narsani qaytarib berish mumkin bo'lmagan hollarda uning qiymati, basharti bu narsalar tadbirkorlik uchun mo'ljallangan bo'lsa, boy berilgan foydasi ham qoplanadi.

Fuqaroni ma'muriy qamoqqa olish g'ayriqonuniy ravishda qo'llanilganligi natijasida yetkazilgan zarar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanadi.

TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH QOIDALARINI BUZISHDAGI JINOYATLARNING OLDINI OLISH

Jamiyat taraqqiyotining bugungi bosqichida fuqarolar ishlab chiqarilayotgan har bir tovar-mahsulotlarning, shu mahsulot turiga qo'yilgan standart talablariga javob berishiga ishonch hosil qilib, so'ng xarid qilish yo'lini tutmoqdalar. Bu tabiiy hol. Chunki har bir fuqaro biror narsani xarid qilishdan oldin o'zini va atrofidagilarning xavfsizligini o'ylaydi. Transport vositalarini xarid qilishda ham xuddi shu holatni kuzatish mumkin. Bozordan yoki avtomobil salonidan transport vositasini xarid qilgan shaxs birinchi galda avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish shoxobchasiga borib, xarid qilgan avtomobilini tekshiruvdan o'tkazadi, uning texnik jihatdan soz ekanligiga ishonch hosil qilib, keyin foydalanadi.

Respublikamizda yildan-yilga transport vositalarini xarid qilib va undan foydalanish sur'ati o'sib bormoqda. Bu, bir tomondan, fuqarolarning yengilini oson qilib, ularga ko'maklashayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, vaqt o'tishi bilan, ishlash chiqaruvchi zavodda belgilangan foydalanish muddati tugagan avtomobillarni hali ham ko'chalarimizda uchratishimiz mumkinligiga sabab bo'lmoqda. Nima uchun avtomobillarga foydalanish muddati belgilanadi? Chunki o'tgach avtomobilning shu muddati ham haydovchiga, ham atrofdagilarga xavf tug'dirishi ehtimoli yuqori bo'ladi.

Ko'chalarimizda foydalanish muddati o'tgan transport vositalaridan foydalanayotgan shaxslar, afsuski, hanuzgacha topiladi. Ularning ushbu

transport vositalaridan foydalanishlarini taqiqlovchi qonun normalari mavjud emas. Shu bois, foydalanish muddati o'tgan transport vositalaridan foydalanayotgan shaxslar qonunni buzgan hisoblanmaydilar. Ularga qo'yiladigan yagona talab – avtomobillarini texnik jihatdan sozlab, har yili YHXBning maxsus texnik ko'rigidan o'tkazish. Foydalanish muddati o'tib ketgan transport vositalari texnik jihatdan soz bo'lsa, undan foydalanishga ruxsat beriladi. Ammo jamiyat rivojlanishi bilan transport vositalariga qo'yiladigan talablar ham rivojlanib boradi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, hozirgi rivojlanish bosqichida standart talablarda ko'rsatilgan va foydalanish muddati o'tgan transport vositalaridan foydalanishni taqiqlovchi qonun normasini amalga kiritish fursati yetdi.

O'zbekiston Respublikasining «Avtomobil transporti to'g'risida»gi 1998-yil 29-avgustdagi qonunining 12-moddasida¹ hamda «Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida»gi qonunning 21-moddasida² avtotransport vositalarining xavfsizlik, mehnatni muhofaza qilish, ekologiya talablariga javob berishi, shuningdek standartlar va texnik shartlarga, tibbiy-sanitariya va yong'inga qarshi normalarga muvofiqlik sertifikatga ega bo'lishi lozimligi belgilangan.

Agar biz ushbu qonunlarning talablaridan kelib chiqadigan bo'lsak, foydalanish muddati o'tib ketgan transport vositalari ularga qo'yilgan standart talablarga javob bermaydi. Chunki har bir avtomobilni ishlab chiqaruvchi o'z avtomobilining foydalanish muddatini standart talabdan kelib chiqib belgilaydi. Ko'chalarimizdagi foydalanish muddati o'tib ketgan transport vositalari boshqa foydalanish muddati o'tmagan avtomobillar bilan taqqoslanganda ularning atrofdagilar uchun xavf tug'dirishi darajasi ancha yuqori ekanligiga guvoh bo'lamiz. Kriminologiya tilida aytganda, transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatiga olib keluvchi sabablardan biri bu foydalanish muddati o'tib ketgan avtomobillardan foydalanishdir. Misollarga murojaat etsak, Namangan tumanida yashovchi 1979-yilda tug'ilgan fuqaro A.A. 2008-yil 12-may kuni o'ziga tegishli bo'lgan M-412 rusumli (1978-yilda ishlab chiqarilgan) avtomobilida yo'l-transport hodisasi sodir etgan. Buning natijasida jabrlanuvchi 1979-yilda tug'ilgan Abdiraxmonov A. voqea joyida vafot etgan³. Ushbu fuqaroga qo'yilgan ayblardan biri

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1998. – №9. – 174-м.

² О'sha manba. – 1997. – № 4-5. – 124-м.

³ Наманган вилояти суд архивидан 2008/0545-сонли жиноят иши.

tezlik 70 km/soat qilib belgilangan yo‘lda tezlikni 73 km/soatga chiqariganligi va haydovchilik guvohnomasining YPX xodimlari tomonidan olib qo‘yilganligiga qaramasdan tegishli hujjatlarsiz transport vositasini boshqarishidir. Agar vaziyatni obyektiv tahlil qiladigan bo‘lsak, yo‘l-transport hodisasi sodir etilishiga asosiy sabab avtomobilning texnik holati va uni boshqarishdagi muammolar sabab bo‘lganligini bilishimiz mumkin. Chunki faqat shaxsning haydovchilik guvohnomasi yo‘qligi (YPX xodimlari tomonidan olib qo‘yilganligi)ning o‘zigina bevosita yo‘l-transport hodisasiga olib kelmaydi. Ikkinchidan, tezlikni oshirish atigi 3 km/soatni tashkil qilgan. Bu ruxsat etilgan tezlikdan juda kam miqdordagi tafovut bo‘lib, odam o‘limiga olib keladigan yo‘l-transport hodisasining sodir etilishiga bevosita olib kelmaydi. Mazkur jinoyat ishi bilan batafsil tanishib chiqib, xulosa qilish mumkinki, javobgarning yo‘l-transport hodisasini sodir etishida avtomobilining eskiligi va transportni boshqarishdagi kamchilik (to‘satdan paydo bo‘lgan vaziyatga tezkor chora ko‘rishning qiyinligi) sabab bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 22-dekabrda 32-sonli «Transport harakati yoki undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlarga oid ishlar yuzasidan sud amaliyoti to‘g‘risida»gi qarorining 7-bandida «Tergov organlari shaxsni JKning 266-moddasi bilan ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to‘g‘risidagi qarorda, ayblov xulosasida, sud esa hukmda, aynan «Yo‘llarda harakatlanish Qoidalarini»ning qaysi bandlari buzilganligini ko‘rsatish bilan chegaralanmasdan, balki bunday qoida buzishlar nimalardan (texnik jihatdan nosoz transport vositalarini boshqarish, mastlik holatda transport vositasini boshqarish, tezlikni oshirishdan) iborat ekanligini ko‘rsatishlari zarur», deb ko‘rsatib o‘tilgan. Shunga qaramasdan, yo‘l-transport hodisasi bilan bog‘liq Jinoyat kodeksi 266-moddasi bilan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishlari materiallari yoki sud hukmlarida foydalanish muddati o‘tib ketgan avtomobilni sabab sifatida ko‘rsatilganini uchratmadik¹.

Shu o‘rinda «texnik jihatdan nosoz transport vositalari» tushunchasiga aniqlik kiritadigan bo‘lsak, transport vositalaridan foydalanish atrofdagilar uchun xavfli deb topilsa, u texnik jihatdan nosoz

¹ Диметов Р.И., Воитов Б.Б. Транспорт жиноятларига оид ишларни кўришда ярашиш институтининг аҳамияти / Ҳуқуқ фанини ривожлантириш ва юқори малакали юристлар тайёрлашнинг долзарб муаммолари. – Т., 2004. – 96-98-б.

hisoblanadi¹. Transport vositalarining nosozligi esa texnik ko'rik xulosasiga ko'ra aniqlanadi. Texnik ko'rik esa Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 31-yanvardagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi NIZOM»ga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu nizomning 5-bandiga muvofiq, tijorat asosida yo'lovchilar tashish uchun foydalaniladigan transport vositalari – bir yilda ikki marta; ishlab chiqarilganligiga besh yildan ko'p bo'lmagan transport vositalari – ikki yilda bir marta, ishlab chiqarilgan yilini hisobga olgan holda ishlab chiqarilganligiga besh yildan ortiq bo'lgan transport vositalari, shuningdek ishlab chiqarilgan vaqti aniqlanmagan transport vositalari – bir yilda bir marta texnik ko'rikdan o'tishlari lozim². Ushbu nizom talablarini bajarib, transport vositasini texnik ko'rikdan o'tkazgan haydovchilarning o'zlari ham uni keyingi texnik ko'rikkacha soz yurishi mumkin emasligini ta'kidlashgan. Jumladan, anketa so'rovi o'tkazib «transport vositalari texnik ko'rikdan o'tkazilganidan so'ng keyingi texnik ko'rik muddatigacha soz yurishi mumkinmi?» degan savolga 72% so'ralgan haydovchilar «yo'q» deb javob berishgan. «Ha» deb javob berganlardan 24% agar transport vositasi yangi bo'lsa soz yurishi mumkinligini ta'kidlashgan. Faqat 4% so'ralgan haydovchilar transport vositalari texnik ko'rikdan o'tkazilganidan so'ng keyingi texnik ko'rik muddatigacha soz yurishi mumkin deb hisoblashgan.

Agar biz yo'l-transport hodisasiga olib keluvchi sabablarni chuqur tahlil qilsak, standart talablardan kelib chiqib, ishlab chiqaruvchi korxonada tomonidan belgilangan va foydalanish muddati o'tib ketgan transport vositalari jinoyat sodir etishga olib keluvchi sabab bo'lishi aniq. Chunki, birinchidan, foydalanish muddati o'tgan transport vositalari texnik ko'rikdan o'tganidan so'ng keyingi texnik ko'rik muddatigacha texnik jihatdan soz yurishi (obyektiv holatlardan kelib chiqib) mumkin emas. Transport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazish muddati kelmay turib undagi ayrim detallarning sinishi, ehtiyot qismlarning ishdan chiqishi va boshqa nosozliklar yuzaga kelishi aniq.

¹ *Пикуров Н.* Отграничение состава дорожно-транспортного преступления от смежных составов преступлений / Уголовное право. – М., 2009. – №5. – С. 61-66.

² Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 31 январдаги 54-сонли қарори билан тасдиқланган «Транспорт воситаларини мажбурий техник кўриқдан ўтказиш тартиби тўғрисида»ги Низомнинг 5-банди / Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. –2003. – №1-2. –17-м.

Ikkinchidan, ishlab chiqaruvchi zavod foydalanish muddati o'tganidan so'ng transport vositalarining xavfsizligiga kafolat bermaydi, ulardan foydalanish esa atrofdegilar uchun xavfli bo'lib qoladi¹.

Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklar sodir etilganda, surishtiruvchilar tomonidan birinchi galda transport vositalarining foydalanish muddati o'tib ketganligini tekshirish vazifasi yuklatilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining «Transport harakati yoki undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlarga oid ishlar yuzasidan sud amaliyoti to'g'risida»gi 2000-yil 22-dekabrda 32-sonli Plenumi qarorida² transport vositalarining foydalanish muddatlari o'tib ketganligi haqida tushunchalar berilmagan.

O'rganilgan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzishga oid jinoyat ishlarida nosoz transport vositalaridan foydalanib («Yo'l harakati qoidalari»ning 3.6-bandining 3 va 4-xatboshi) yo'l-transport hodisasi sodir etilgan degan xulosa deyarli uchramaydi.

Avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonalarini avtomobildan foydalanish muddatini belgilashlari turlicha bo'lib, ular transport vositasining xususiyatidan, xalqaro va davlat standartlariga javob berishidan kelib chiqib muddat o'rnatadilar. Avtomobil transportlarini me'yor (standart)lar va texnik shartlarini buzish transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish hisoblanadi va uning natijasida og'ir oqibatlar kelib chiqsa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi-ning 266-moddasi bilan, agar oqibat kelib chiqmasa yoki yengil darajadagi tan jarohatlari yetkazilsa, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 125-moddasi ikkinchi qismi bilan javobgarlik vujudga keladi. Avtomobil transportlarini standartlar va texnik shartlarini buzish holati esa ushbu sohada qoidabuzarlik va jinoyat sodir etilishiga olib keluvchi sabablardan biri hisoblanadi.

¹ *Перфилов В.П.* Теоретические и практические вопросы уголовно-правовой квалификации нарушений правил дорожного движения и эксплуатации транспортных средств: Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – М., 2008.

² Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Транспорт ҳаракати ёки ундан фойдаланиш хавфсизлигига қарши жиноятларга оид ишлар юзасидан суд амалиёти тўғрисида»ги 2000 йил 22 декабрдаги 32-сонли қарори / Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991-2006 йиллар. Ж.2. – 54-63-б.

YO‘LLARDA HARAKATLANISH XAVFSIZLIGIGA OID ASOSIY TUSHUNCHA VA ATAMALARNING MA’NOSI

Avtomobil yo‘li – transport vositalari harakatlanishi uchun mo‘ljallangan, ularning belgilangan tezlikda, og‘irlikda, o‘lchamlarda muttasil va xavfsiz harakatlanishini ta’minlaydigan muhandislik inshootlari majmuasi, shuningdek ushbu majmuani joylashtirish uchun ajratilgan yer uchastkalari va majmua ustidagi belgilangan doiradagi bo‘shliq.

Avtomobil yo‘lining o‘q chizig‘i – qatnov qismi yoki ajratuvchi tasma o‘rtasidan o‘tuvchi shartli chiziq.

Avtomobil yo‘llarini rivojlantirish chizmasi – iqtisodiyot tarmoqlari hamda hududlarni rivojlantirishga bog‘liq holda avtomobil yo‘llarini rivojlantirishning maqsadi va asosiy ko‘rsatkichlarini, ularni loyihalash, qurish, ta’mirlashning maqsadga muvofiqligini asoslovchi va texnik darajasini oshirish bo‘yicha boshqa tadbirlarni o‘z ichiga olgan chizma.

Avtomobil yo‘llaridan foydalanuvchilar – yo‘l harakatining ishtirokchilari bo‘lgan yoki ajratilgan mintaqqa hamda yo‘l bo‘yi mintaqasi doiralarida belgilangan tartibda ruxsat etilgan faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar.

Ajratilgan mintaqqa – avtomobil yo‘li, uning tegishli tarkibiy elementlari va muhandislik inshootlari, shuningdek avtomobil yo‘lidan foydalanish uchun zarur bo‘lgan binolar, inshootlarni joylashtirish, ihota va manzarali daraxtlar o‘tqazish uchun doimiy foydalanishga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladigan yer uchastkasi.

Boshqa og‘ir oqibatlar – yo‘l-transport hodisasi natijasida odam o‘lishi bilan birgalikda yana bir qancha kishilarning og‘ir tan jarohatlari olishlari, poyezd, kema yoki samolyotlar harakati tizimining uzoq muddatga izdan chiqishi, tashiladigan yuklarga juda ko‘p miqdorda ziyon yetkazilishi, atrofdagi uy-joy va boshqa inshootlarning buzilishi (portlashi, yonib ketishi, vayron bo‘lishi) bilan bog‘liq juda ko‘p miqdorda ziyon yetkazilishi kabi holatlar.

Yo‘l – transport vositalarining harakatlanishi uchun qurilgan yoki moslashtirilgan va foydalaniladigan yer polosasi yoxud sun‘iy inshoot yuzasi. Yo‘l avtomobil yo‘llarini, shahar elektr transporti yo‘llarini va yo‘lkalarni o‘z ichiga oladi.

Yo‘l harakati – odamlar va yuklarning transport vositalari yordamida yoki bunday vositalarsiz yo‘llar doirasida harakatlanishi jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlar majmui.

Yo‘l harakati qatnashchisi – yo‘l harakati jarayonida transport vositasining haydovchisi, yo‘lovchisi yoki piyoda sifatida bevosita ishtirok etayotgan shaxs.

Yo‘l harakati xavfsizligi – yo‘l harakati qatnashchilarining yo‘l-transport hodisalari va ularning oqibatlaridan himoyalanganlik darajasini aks ettiruvchi yo‘l harakati holati.

Yo‘l-transport hodisasi – transport vositasining yo‘lda harakatlanishi jarayonida ro‘y bergan, fuqarolarning halok bo‘lishiga yoki sog‘lig‘iga zarar yetishiga, transport vositalari, inshootlar, yuklarning shikastlanishiga yoxud boshqa moddiy zarar yetishiga sabab bo‘lgan hodisa.

Yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash – yo‘l-transport hodisalari yuzaga kelish sabablarining oldini olishga, bunday hodisalar oqibatlarining og‘irligini yengillatishga qaratilgan faoliyat.

Yo‘l harakatini tashkil etish – yo‘llarda harakatni boshqarish bo‘yicha huquqiy, tashkiliy-texnikaviy tadbirlar va boshqaruv harakatlari majmui.

Yo‘lning rejasi – yo‘lda joylashgan barcha inshootlar bilan yo‘lning gorizontal tekislikdagi aksi.

Yo‘l bo‘yi mintaqasi – ajratilgan mintaqaga tutashgan, chegaralarida aholi xavfsizligini va transportning harakatlanish xavfsizligini ta‘minlash uchun yerdan foydalanishning alohida shartlari belgilanadigan yer uchastkasi.

Yo‘lga mutasaddi xo‘jalik – umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘li tarmog‘ini, uning me‘yoriy ekspluatatsiyasi uchun zarur bo‘lgan barcha inshootlarni, shuningdek mazkur yo‘llarni tuzatish va saqlash bilan shug‘ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar.

Yo‘l xizmati – avtomobil yo‘llarini va yo‘l inshootlarini saqlash va tuzatish, avtomobillarning xavfsiz harakatini ta‘minlash, yo‘lning texnik toifasini saqlash va oshirish bo‘yicha ishlar yuklangan bo‘linmalar majmuasi;

Yo‘l tarmoqlarini rivojlantirish – hududdagi iqtisodiyot tarmoqlariga va aholining avtomobilda tashishga bo‘lgan ehtiyojiga hamda xalqaro avtotransport tashuvlarining hajmiga bog‘liq ravishda avtomobil yo‘llarining kelajakdagi rivojlanish rejasini amalga oshirish.

Yo‘l muhandislik qurilmalari – harakat xavfsizligini va uzluksizligini ta‘minlash, yo‘lovchilar, haydovchilar va avtomobillarga harakat bo‘ylab xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan inshootlar majmuasi. Ularga avtobus bekatlari, tezlikni oshirib o‘tish tasmasi, avtomobillar to‘xtab turishi uchun maydonchalar, dam olish maydonchalari va avtobuslarni kutish uchun ayvonlar, yo‘lni qor ko‘chkilaridan, qor

bosishidan himoyalash uchun qurilmalar, aloqa yo'llari va yo'lni yoritish vositalari kiradi.

Yo'l toifasi – avtomobil yo'lining respublika umumiy transport tarmog'i va xalq xo'jaligidagi ahamiyatini, undagi harakat jadalligini ifodalovchi mezon.

Yo'l yoqasi – yo'l poyining ikki tomonida joylashgan bo'lib, u qatnov qismining yon tomonidan yo'l poyining chetigacha bo'lgan joy.

Yo'l to'shamasi – bir yoki bir nechta qatlamlardan iborat bo'lib, bir nechta qatlam to'shamasi qoplama, asos va asosning qo'shimcha sovuq va issiqdan himoyalovchi, suv o'tkazuvchi va boshqa qatlamlaridan iborat. Transport vositalaridan tushayotgan yuklamaga qarshiligi va iqlim ta'siriga munosabati bo'yicha yo'l to'shamalari qattiq qoplamali va asosli to'shamalar hamda qattiq bo'lmagan qoplamali va asosli to'shamalarga bo'linadi.

Magistral ko'cha – shaharning asosiy tarmoq yo'li. Ular umumshahar ahamiyatiga ega bo'lgan (aholi yashovchi, sanoat tumanlari va jamoat markazlari o'rtasidagi aloqa, shahar tashqarisidagi avtomobil yo'llariga chiqish) va tuman ahamiyatidagi magistral ko'chalar (tuman chegarasidagi va umumshahar ahamiyatiga ega bo'lgan magistral ko'chalar bilan transport aloqalari)ga bo'linadi.

Mexanik transport vositasi – dvigatel bilan harakatga keltiriladigan transport vositasi (mopeddan tashqari). Ushbu atama barcha traktor va o'ziyurar moslamalarga ham taalluqlidir.

Odamlar o'limi – sodir bo'lgan transport hodisasi oqibatida ikki yoki undan ortiq odamlarning halok bo'lishi. Qonun mazmunidan kelib chiqib ushbu belgi bilan kvalifikatsiya qilish uchun kamida ikkita odam o'limiga sabab bo'lgan holatni tushunish lozim.

Tan jarohati olgan shaxs – yo'l-transport hodisasi oqibatida tan jarohati olib bir kundan ortiq muddatga statsionar tarzda davolanish uchun shifoxonaga yotqizilgan yoxud birinchi tibbiy yordam ko'rsatilgandan so'ng tibbiyot muassasasiga qatnab ambulator tarzda davolanayotgan shaxs.

Transport vositalari – odamlarni, yuklarni tashishga yoki maxsus ishlarni bajarishga mo'ljallangan qurilma avtomobillar, traktorlarning barcha turlari, o'ziyurar mashinalar, tramvay, trolleybuslar, shuningdek, mototsikllar va boshqa mexanik transport vositalari, ichki yonar dvigatelinig ishchi hajmi 50 sm³ va undan ortiq bo'lgan transport vositalari. Shu bilan birga, yo'l qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlar uchun mo'ljallangan maxsus mashinalar (ekskavatorlar, greyderlar, avtokranlar, skreperlar, avtopogruzchiklar).

Transport oqimi – turli darajada yuklangan har xil rusumdagi avtomobillarning va boshqa transport vositalarining yo‘l bo‘ylab aynan bir vaqtdagi harakati.

Transport oqimining zichligi – transport-ekspluatatsiya xususiyati bo‘yicha bir xil yo‘l uchastkasining birlik uzunligiga to‘g‘ri keladigan, odatda, 1 km oraliqdagi avtomobillar miqdori.

Transport vositasining egasi – transport vositasiga mulk huquqida yoki boshqa ashyoviy huquqlarda egalik qiluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Transport vositasini boshqaruvchi shaxs – aynan yo‘l-transport hodisasi sodir etilgan vaqtda transport vositasini boshqarib borayotgan shaxs.

Xavfsizlik mintaqasi – umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari uchun yo‘l qurilishiga ajratilgan yer tasmasi chegarasidan qizil chiziqqacha bo‘lgan masofa. Ko‘chalar uchun – qatnov qismi chetidan qizil chiziqqacha bo‘lgan masofa.

Halok bo‘lgan shaxs – yo‘l-transport hodisasi oqibatida hodisa joyida yoki uning natijasida o‘ttiz sutka ichida halok bo‘lgan shaxs.

Halokat – shunday hodisa tufayli atrof-muhitga, insonlarning sog‘ligi va hayoti uchun xavfli bo‘lgan jiddiy ziyon yetkazilishi, insonlarning halok bo‘lishiga sababchi bo‘lgan temir yo‘l, dengiz, daryo yoki havo transportlarining, shuningdek, ko‘pchilikni tashishga mo‘ljallangan jamoat transportlari (avtobus, trolleybus va shu singarilar)ning avariya bo‘lishi, zaharli yoki yong‘in xavfini keltirib chiqaradigan yuklar (benzin, gaz, neft va boshqa shunga o‘xshashlar)ning avariya natijasida to‘kilishi, atrofga xavf tug‘dirishi natijasida aholini evakutsiya qilish va shunga o‘xshash ehtiyot choralarini ko‘rishning majburligi.

Qatnov qismining cheti – qatnov qismini yo‘l bo‘yidan ajratuvchi chiziq.

Qizil chiziq – umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari uchun yo‘l qurilishiga ajratilgan yer tasmasi chegarasidan boshlab belgilangan xavfsizlik mintaqasi. Ko‘chalar uchun qatnov qismi chetidan boshlab belgilangan xavfsizlik mintaqasi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 2 октябрдаги «Автомобиль йўллари тўғрисида»ги қонуни.

Ўзбекистон Республикасининг 2013 йил 10 апрелдаги «Йўл ҳаракати хавфсизлиги тўғрисида»ги қонуни.

Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 15 апрелдаги «Темир йўл транспорти тўғрисида»ги қонуни.

Ўзбекистон Республикасининг 1993 йил 7 майдаги «Ҳаво» кодекси.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 26 апрелдаги «Шаҳарларда йўл қурилишини ташкил этишни такомиллаштириш борасидаги кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 62-сонли қарори.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 10 мартдаги «Ўзбекистон автомобиль ва дарё транспорти агентлиги фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 118-сонли қарори.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 18 майдаги «Йўналишсиз таксилар фаолиятини тартибга солиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 139-сонли қарори.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 18 майдаги «Йўналишсиз таксилар учун ягона таниш белгилари ва уларнинг ишларини ташкил этишга қўйиладиган талаблар тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш тўғрисида»ги 139-сонли қарори.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 15 ноябрдаги «Йўл-транспорт ҳодисаларини ҳисобга олиш тизимини такомиллаштириш тўғрисида»ги 303-сонли қарори.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 15 ноябрдаги «Ўзбекистон Республикаси ҳудудида йўл-транспорт ҳодисаларини ҳисобга олиш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида»ги 303-сонли қарори.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 30 ноябрдаги «Темир йўлда ташиш хавфсизлигини таъминлашга қаратилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида»ги 314-сонли қарори.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 30 ноябрдаги «Темир йўл вокзалларида (станцияларида) йўловчилар ва

бошқа шахсларни, кўл юкини, багажни кўздан кечириш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида»ги 314-сонли қарори.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 31 декабрдаги «Умумий фойдаланиладиган автомобиль йўлларини таъмирлаш ва сақлаш ишлари таснифига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги 352-сонли қарори.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 26 декабрдаги «Ўзбекистон Республикаси ҳудудидаги автомобиль йўлларида хавфсизликни таъминлаш ва ташкил этиш чоратадбирлари тўғрисида»ги 342-сонли қарори.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 26 декабрдаги «Ўзбекистон Республикаси ҳудудидаги автомобиль йўллари минтақасида хавфсизликни таъминлаш ва ташкил этиш қоидаларини тасдиқлаш ҳақида»ги 342-сон қарори.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди пленумининг 1996 йил 20 декабрдаги «Транспорт воситаларини олиб қочиш ишлари бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 37-сонли қарори.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди пленумининг 2000 йил 22 декабрдаги «Транспорт ҳаракати ёки ундан фойдаланиш хавфсизлигига қарши жиноятларга оид ишлар юзасидан суд амалиёти тўғрисида»ги 32-сонли қарори.

Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг 2011 йил 31 майдаги «Йўл ҳаракати қоидаларининг бузилишига доир маъмурий ишларни кўриб чиқиш тартиби тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш ҳақида» 68-сонли буйруғи.

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирининг 2011 йил 6 июлдаги «Ушланган транспорт воситалари ҳисоби шаклини тасдиқлаш тўғрисида»ги 99-сонли буйруғи.

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI.....	3
Transport vositalarining ijtimoiy munosobatlarga ta’siri.....	6
Yo‘l-transport hodisalarining oldini olishda ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning ahamiyati.....	9
Ma’muriy amaliyot xodimlarining nazorat qilish jarayoni va vazifalari.....	11
Harbiy transport vositalarini boshqarishdagi hodisalarda ma’muriy javobgarlik.....	18
Respublikamizda xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning transport vositalarini boshqarishdagi hodisalarda ma’muriy javobgarligi.....	23
Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risida ish yuritish istisno qilinadigan holatlar.....	27
Transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzishdagi jinoyatlarning oldini olish.....	33
Yo‘llarda harakatlanish xavfsizligiga oid asosiy tushuncha va atamalarning ma’nosi.....	38
Adabiyotlar ro‘yxati.....	42

ALLAYAROV Nurmanbet O‘razimbetovich;
APPAKOV Musoxon Pulatovich

TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH
XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHDA
MA‘MURIY AMALIYOT

O‘quv qo‘llanma

Muharrir **S. S. Qosimov**
Texnik muharrir **D.X.Hamidullayev**

Bosishga ruxsat etildi . 06. 2014. Nashriyot hisob tabag‘i 3,3.
Adadi nusxa. Buyurtma

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
100197, Toshkent shahri, Intizor ko‘chasi, 68.